

S.BEKCHANOVA N.ALLAMBERGENOVA

A DABIYOT DARSLARIDA MATNNI SHARHLASH

Toshkent-2011

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**S.BEKCHANOVA
N.ALLAMBERGENOVA**

ADABIYOT DARSLARIDA MATNNI SHARHLASH

**Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Toshkent – 2011**

Y/IK: 372.882(072)
821.512.133(072)
ББК 83.73
Б49

Muharrir — Shukur Qurbon

Bekchanova, S.

Adabiyot darslarida matnini sharhlash / S.Bekchanova, N.Allamberganova; mas'ul muharrir B.To'xliyev; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat ped. in-ti. —T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. —56 b.

I. Allamberganova, N.

Ushbu qo'llanma xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz adabiy asarlarni dars jarayonida sharhlash borasida bahs yuritadi. Sharhlash bilan bog'liq ilmiy-nazariy tushunchalar yoritilib, muayyan asarlarni sharhlab o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti hamda o'zbek filologiyasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, ushbu yo'nalishlar magistrantlari va adabiyot o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: B.TO'XLIYEV,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: F.SALAEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sh.YO'LDASHEVA,
pedagogika fanlari nomzodi

Mazkur qo'llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-06-384-6

A'loqaz atidag'i NMP
Informatsiyaliq resurs
II. VENTAR № 115745

© Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2011-y.

SHARHLAB O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Badiiy adabiyot ta'limining turli bosqichlarida o'rganiladigan boshqa fanlardan farqli bir jihati bor. Barcha fanlar o'quvchilarga asosan muayyan sohadagi bilimlarni berishni ko'zda tutadi. Adabiyot esa, bolaga muayyan bilimlarni ham beradi, ammo uning asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod — bo'lajak shaxsning tuyg'ulari, qalbi, hissiy va ruhiy olamiga ham tegishli ta'sir ko'rsatishga qaratiladi. Zero, badiiy adabiyotning inson individi — shaxsiyatining shakllanishi va takomilidagi o'rni favqulodda darajada katta va beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida zamonaviy ta'lim tizimi haqida to'xtalarkan, "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi", — deya ta'kidlagan edi [1, 61].

Adabiyotning o'rganish ob'ekti badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot — so'z san'ati. Xuddi mana shu holat adabiyotning o'quv fani sifatidagi o'ziga xosligini tayin etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturida ko'rsatilganiday, adabiyot fanning asosiy maqsadi o'quvchilarni kitobga, badiiy so'zga, so'z san'atiga oshno qilish asosida ularda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyot fani oldidagi asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni badiiy adabiyotga oshno qilish asosida ulardagi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirish, ularda kitobga, ayniqsa, badiiy adabiyotga bo'lgan mehr va muhabbatni paydo qilish, badiiy adabiyotni o'qish va o'rganishni asosiy hayotiy ehtiyojlariga aylantirish, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishdan iborat.

Maktabgacha tarbiyadan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari eng qadimgi davrlardan boshlab hozirgi paytgacha bo'lgan muddatda yaratilgan eng sara

asarlar tavsiya etilgan. Albatta, bunda jahon adabiyotining nodir namunalari jamlangan. Shunga qaramay, ularning asosiy katta salmog'ini bevosita o'zbek adabiyoti tashkil etadi. Buning hech bir ajablanarli joyi yo'q. Badiiy jihatdan yuksak hisoblanadigan asarlar bilan tanishish har qanday yoshda ham ruhning bayramidir. Agar bu tuyg'u ilk bolalikdan boshlab shakllansa, shubhasiz, kelajakda bu tuyg'u egarlaridan faqat yaxshi va ezgu harakatlarga mayl va rag'batning paydo bo'lishi, kuchayishi kutiladi.

Shu narsa ham yaxshi ma'lumki, birorta natija o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ayniqsa, yuksak maqsadlarga erishish juda katta kuch, mehnat, bilim hamda ko'plab soha mutaxassislarining birgalikdagi, hamjihatlik bilan qilgan mehnatlari natijasi sifatidagini paydo bo'ladi, xolos.

Jumladan, bolalarimizning badiiy adabiyotni tushunish va his etish singari fazilatlarini ham o'z-o'zidan yuzaga kelib qolmaydi. Buning uchun ham uzoq muddatli, muntazam va uzluksiz mehnat qilish kerak bo'ladi.

Badiiy asar tahlili bu jihatdan eng yaqin yordamchimiz bo'la oladi. Agar badiiy tahlil barcha ilmiy-pedagogik talablarga javob bersa, u, shubhasiz, samarali bo'ladi. Bu talabalar orasida eng asosiy sifatlari quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Bolalarning yosh xususiyatlari.
2. Ularning adabiy tayyorgarlik darajalari.
3. Tanlangan asarning badiiy jihatdan yuksaklik darajasi.
4. Asarning bolalarning qiziqishlari bilan uyg'unlik holati.
5. Badiiy asarlarning bugungi ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan uyg'unligi.
6. Badiiy asarni o'rganish uchun yaratilgan ijtimoiy-pedagogik sharoit.

1. Adabiy ta'lim samaradorligi birinchi navbatda bola shaxsining o'zi bilan chambarchas bog'langan. Har bir bolaning turli yosh davrlaridagi fiziologik hamda ruhiy holatlari yaxshi ma'lum. Ular bir-biriga o'xshamasligi bilan e'tibordir. Demak, badiiy adabiyotni o'qib o'rganishda, dastlab, bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqish zarurati bor. Bola turli yosh davrlarida turlicha mayl va rag'batlarga, turlicha qiziqishlarga ega bo'ladi. Ularning kattalashish jarayoni bilan ijtimoiylashish jarayoni to'g'ri proporsionallikni tashkil etadi. Demak, ularning yoshlari ulg'aygan sari, jamiyat hayotiga qiziqish va

e'tiborlari ham orta boshlaydi. Ularning oldida ko'plab hayotiy savollar ko'ndalang bo'ladi. Javob esa, juda kam omillardagina mujassamlashgan, xolos. Mana shunday omillardan biri va bola uchun nihoyatda mos va munosibi badiiy adabiyotdir.

2. Ammo bolaning yoshi katta bo'lgan sari, u asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, badiiy adabiyotni o'qish va o'rganishga kirishib ketadi, deb o'ylash mutlaqo xato qarashdir. Hech qachon bunday bo'lmaydi. Eng murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish va ular ustida ishlash uchun qanchalik jiddiy bilim, ko'nikma va malakalar kerak bo'lsa, kitob o'qish, kitobni tahlil qilish, uning mag'iz-mohiyatiga yetib "hazm qilish" uchun ham xuddi shunday bilim, ko'nikma va malakalar taqazo etiladi. Alohida olingan har qanday badiiy asarni o'qish va uni idrok etish uchun bola shaxsining tegishli adabiy tayyorgarlik darajasi talab etiladi.

Agar bu oltin qoidaning asl mohiyatini to'la idrok etsak, maqol va topishmoqlarning, ertaklarning nima uchun 8- yoki 9-sinfda emas, balki boshlang'ich sinflarda, shuningdek, 5-, 6-sinflardagina o'rganilishini, aksincha, Navoiyning "Xamsa" turkum dostonlarini, milliy uyg'onish davri adabiyoti namunalari esa, asosan, yuqori sinflarda o'rganilish sabablarini tasavvur etishimiz osonlashadi.

3. Tanlangan asarning badiiylik darajasi hal qiluvchi omillar qatorida turadi. Badiiyati yuksak bo'lgan asarlar o'quvchini faqat estetik jihatdan emas, balki juda ko'ptomonlama yuksalishi uchun zamin hozirlaydi. U, ta'bir joiz bo'lsa, bola shaxsini olam va odamga daxldor bo'lgan hodisalar bilan yaqindan tanishtiradi. Demak, u bolaning bilish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Asarning bolalar qiziqishlari bilan uyg'unlik holati.

Keyingi paytlarda pedagogik jarayonga ko'plab yangi texnologiyalarning joriy etilayotgani sir emas. Seminar-dars, suhbat-dars, sinov-dars, konferensiya-dars, sayohat-dars kabi turlar endilikla ancha ommalashib ketdi. Bunday dars turlari o'quvchini tegishli fan va mavzulardan oladigan bilimlarini faollashtiribgina qolmay, ularning dars paytidagi e'tiborsizligi, loqaydliligi barham beradi, ularda fiollikni yuzaga keltiradi. Buning natijasida, adabiyot darslarida bola qalbidagi yozuvchining kashfiyotiga, asar voqealariga, uning zamiridagi hayotga jonli qiziqish uyg'otadi. Bular bolani mantiqiy fikrlashga, har bir hodisa mohiyatini ilg'ash uchun jiddiy o'ylashga undaydi, undagi ijodiy va mustaqil fikrlash, alohida

hodalarni yaxlit tarzda tasavvur etish va xulosalar chiqarishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishi va rivojiga olib keladi.

5. Badiiy asarlarning bugungi ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan uyg'unligi. "Aqidaga tegishli nafaqat umumiy qoidalar, nafaqat payg'ambarlar tarixi yoxud vahiyda kelgan voqealar, balki xususiy va umumiy ma'noli yuzlab ruhoniy-ma'naviy tushunchalar ham o'z lug'aviy, istilohiy sharhlarini adabiy ta'lim jarayonida taqozo etadi. Chunonchi, g'aybiyot, zuhd, farishta, shayton, jin, do'zax, jannat, shirk kabi ulkan tushunchalar ma'nolari hozirda cheklangan holda noo'rin talqin etilayotgan nafs, gunoh, savob, kasb, halol, xarom, haq, botil, gumon, zulm, sahovat, isrof, ibodat singari keng va o'ta keng ma'noli amallar islom masdarlari asosida aniq tavsiflarini talab etadi" [44, 52].

Bitta asarning badiiy-estetik mohiyatini to'la tushunish uchun uni o'qib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi. Eng avvalo, kitob malakali tarzda o'qilishi, buning uchun esa, so'zning mohiyati idrok etilishi lozim. So'zning san'at darajasida idrok etilishigina uning mohiyatini yorqinlashtiradi, xolos. Ammo butun boshli bir asarni idrok etish uchun faqat so'zning o'zini tushunish kamlik qiladi. Endi asarda ishtirok etayotgan boshqa unsurlarga ham e'tibor, ya'ni asar tahlili talab etiladi. Alohida olingan bitta badiiy asar mohiyatini to'la va tugal anglash uchun uni har tomonlama tahlil qilish zarur bo'ladi. Hamma gap mana shu tahlilning qanday bo'lishi, uning nimadan boshlanib, qanday davom etishi hamda nima bilan yakunlanishidadir. Bir so'z bilan aytiladigan bo'lsa, har qanday tahlil ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi kerak.

Bizda qadimdan badiiy asarni tushunish va tahlil qilishning turli shakl va usullari amal qilgan. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi misolida biz ko'plab o'ziga xos shakl va usullarni kuzatishimiz mumkin.

Bunda birinchi navbatda, badiiy asarni o'qishda alohida e'tibor, onglikprinsipi ustuvor mavqe tutganligi kuzatiladi. Navoiyning ta'kidlashicha, bolalar uchun "o'qib o'tmak, uqib o'tmak" shior bo'lishi lozim. Demak, birorta o'qilgan asar *uqilmagan* holda qolib ketmasligi joiz. Afsuski, badiiy asarni o'qish jarayonida hamma narsa ham o'z-o'zicha "uqilib" ketavermaydi. Ayrim holatlar borki, ularni bir emas, bir necha marta o'qilganida ham uqish nihoyatda qiyin bo'ladi. Biz ayrim misollarga murojaat etamiz. Navoiyning "Xazoyin

ul-ma'oniyy" sida, jumladan, shunday misralar ham mavjud:

Jahon qasrig'adur su uzra bunyod

Chu yo'q bunyodi andin bo'lmog'il shod. (B.B.)

Jahonning imorat (qasr)i suv ustiga quril (bunyod bo'l)gan,

Agar uning bunyodi yo'qolsa (qasri buzilsa, vayron bo'lsa),
undan xursand bo'lma.

Bu misralarni sharhlash, izohlash uchun yuqorida keltirilgan nasriy bayonning o'zi yetarli bo'lmaydi. O'qituvchi qadimgi tasavvurlarni esga olishi, o'sha tasavvurlarga ko'ra, Er (shari)ning suv (dengiz yo okean ustida) turishi aytib o'tilishi, zarur hollarda unga tegishli izohlar berilishi kerak.

Badiiy asar tahlilining har doim qo'llasa bo'laveradigan yagona shakli mavjud emas. U yozuvchi (shoir)ning badiiy niyati, asar janri, u ko'zda tutgan mavzu va g'oya, har bir asarning o'ziga xos badiiy-estetik olamiga bog'liq holda turli shakl va ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ammo ularning barchasida sharh, sharhli o'qish alohida mavqega ega bo'la oladi.

O'qituvchining o'zi yoki sinfdagi o'quvchilarning biri, ayrim hollarda esa, suxandonlar tomonidan ijro etilgan matnning ovozi yozuvi eshittirilishi, shu asnda ayrim so'z va tushunchalar, nomlar, atamalar, obrazlarga oid sharhlar amalga oshirilishi mumkin.

Bunday sharhlar tahlil jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning har bir badiiy-estetik hodisa mohiyatini ongli tarzda o'zlashtirishlari uchun zamin yaratadi. Zero, "Tushungan holdagi tahlil – ayni hayotiy bo'lib, talqin etilayotgan masalaga jonli munosabatda bo'lish demakdir" [36, 25].

Sharhlab o'qitis Sharq pedagogik amaliyotida qadim zamonlardan buyon keng qo'llanib kelingan usullardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ibn Sinoning Arastu saboqlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda Forobiy sharhlarining yordami haqidagi e'tiroflari bu misolning nihoyatda go'zal namunasi bo'la oladi.

Sharh arabcha so'z bo'lib, "tushuntirish", "izoh", "tavsif"; "eslatma" kabi ma'nolarni anglatadi [48, 553]. Sharh rus tilida "kommentariy", sharhlash esa, "kommentirovanie" tarzida qabul qilingan. Uning ma'nosi "sharh", "tushuntirish"; "tafsir", "tavsif", "izoh" kabi ma'nolarni anglatadi [31, 454]. Alisher Navoiy asarlari lug'atida esa, sharh "izoh, kengroq tushuntirish" tarzida ko'rsatilgan [29, 693]. Ayrim nazariy manbalarda, qadimgi qo'lyozmalarda

sharhning tavsifga o'xshab ketishi, uning sharh bilan ma'nodosh bo'lsa-da, lekin kengroq mazmuni anglatishi ham ko'rsatiladi. "Farhangi zaboni tojiki"da u "oshkor va ravshan qilish, bayon, izoh, biror masalani tafsir va ma'nodor qilish" deya qayd etiladi [42, 571].

S.Dolimov, H.Ubaydullaev, Q. Ahmedovlar "sharh bilan o'qish" atamasini ism-molga kiritishib, uni "leksiya metodining o'ziga xos bir turidir" degan edi [13, 60].

Rus metodistlari sharhlab o'qitishga oid birmuncha ilmiy tajribalarni to'plagan. Jumladan, L.F.Ileeva [16], M.T.Kostava [19], I.A. Nizovskaya [30, 48-75], I.N.Starkas [33], M.A. Shneersonlar [45] sharhlab o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini haqida mulohazalar bildirishgan.

Alohida ijodkorlar yoki alohida asarlarga oid sharhlab o'qitish haqida ham tadqiqotlar mavjud (L.K.Bogomolov [10], M.I.Gillelson [11] v.b.).

O'zbek metodist-olimlaridan R.Saidova bu borada birinchilardan bo'lib alohida tadqiqot olib borgan [32].

Sharhlab o'qitishning asosiy mohiyati badiiy asarni ongli o'zlashtirishga qaratilgan. Sharh natijasida asar bilan bog'liq bo'lgan asosiy yeqealar yaxshi, batafsil yoritiladi, mavhum va qorong'i jihatlar qolmaydi, ularning izohi, sharhi yoritib beriladi. Bu alohida olingan bitta so'zga ham, ayrim orbrazlarga ham, asarda yaratilgan yoki unda tilga olingan tarixiy davr, muallif shaxsiyati, so'zning ko'chma ma'nosi, ibora, ramz va hokazolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Sharh dars mashg'ulotining, badiiy asar tahlilining istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Buni real sharoitning o'zi hal qiladi. Masalan, "Devonu lug'at it-turk"dagi badiiy namunalarni tahlil qilishdan oldin asar yaratilgan tarixiy davr va uning muallifi haqida ixcham ma'lumot berish zarurati bor. Zero, "Devon"dagi badiiy namunalarning asosiy qismi xalq og'zaki ijodiga tegishli bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy ularni turkiy xalqlar yashaydigan juda katta hududlarni kezib yurib, o'z qulog'i bilan eshitgan parchalarni yozib olgan. "Men bu kitobni maxsum alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajl'lar, maqollar, qo'shiqlar, roajav nav nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim" [20, 44-45], - deydi olimning o'zi. Asar yozilgan davrda, asosan, arabiy va forsiy an'analar ustuvor edi.

Mahmud Qoshg'ariy turkiy so'zlar izohini yaratish bilan bu an'analarni yangicha o'z'lanlarga burib yubordi. Shu asosda nihoyatda ulkan ijtimoiy-tarixiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga molik bo'lgan katta hajmdagi nodir badiiyat namunalari bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Ayrim hollarda sharh darsning muqaddimasi - kirish mashg'uloti vazifasini ado etishi mumkin. Masalan, 5-sinfda "Shiroq" rivoyatini o'rganishdan oldin Shiroqning yurtimiz tarixidagi eramizdan oldingi real tarixiy sharoit bilan aloqadorligi, uning vatan tinchligi va osoyishtaligi, uni yovuz kuchlardan himoya etishga jonini fido qilgan minglab, millionlab yurtdoshlarimizdan birining badiiy adabiyotdagi timsoli ekanligi, ayni paytda uning o'sha bobolarmizda mujassamlashgan aql-idrok va tadbirkorlikni namoyish etadigan badiiy obrazligini izohlash o'rini bo'ladi.

6-sinfda Muqimiyning "Tanobchilar" satirasini o'rganish ko'zda tutilgan. Tabiiyki, o'quvchilar uchun "tanobchi" so'zi va u anglatgan tushuncha ma'lum emas. Shuning uchun ham,, o'z-o'zidan darsni mazkur sarlavhani izohlashdan, uning ma'nosini yoritishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqori sinflarda Yusuf Xos Hojibning "Qutadu bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Maxmurning "Hapalak", Maqsd Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" singari asarlarini ham bevosita ularning nomlarini izohlashdan boshlash imkoniyati mavjud. Albatta, bu sanoqni davom ettiraverish mumkin. Asosiy muddao shuki, sharh bevosita asar nomiini izohlash bilan boshlansa ham, bu usul o'sha asar mohiyatini teranroq anglashga ancha puxta zamin yaratadi. Alohida ta'kidlash joizki, har qanday asarni tahlil qilishda unga yondashishning turli darajadagi shakl va usullari mavjud. Shuning uchun ham,, badiiy asar tahlilida faqat bitta shakl va usulga yopishib olish hech qachon tegishli samarani bermaydi. Har bir asar, har bir janr, har bir mavzuning o'zigina emas, balki o'quvchilarning yosh xususiyatlari va umumiy tayyorgarliklari, tegishli pedagogik vaziyat, o'qituvchi shaxsining mahorati ham bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Asarning poetik ma'nosini oydinlashtirishda ba'zan muallif izohlari, uning alohida shprhlari ham qo'l kelishi mumkin. Ammo bunda ancha-muncha istisnolarga ham duch kelinadi. Pushkinning guvohlik berishicha, "Bayron o'zining ayrim she'rlerini izohlab bera

olmas edi". M.F.Muryanov rus va jahon adabiyotidan bunga o'xshash ancha qiziqarli misollarni keltiradi. Uning ko'rsatishicha, "Nikolay Aseev o'zining bir she'ri ma'nosini yoshligida tushunmagan, qarigan paytlaridagina unga bu she'rning ma'nosi tushunarli bo'lgan" [27,179].

Demak, izoh va sharhlar har holatda ham zaruriydir. Bugungi kunda keng quloqchilik bo'layotgan germenitika faniga berilayotgan e'tibor bejiz emas. U ayni mana shu dolzarb muammo — badiiy asarni tushunish va izohlashni bosh planga olib chiqdi.

Mustaqilligimizning yigirma yilligi arafasida, dadil aytish mumkin, endilikda milliy qadriyatlarimizning bor bo'y-bastini namoyish qilish imkoniyati behad kengaydi. Qadimiy qo'lyozmalarimizdagi, ko'plab og'zaki va yozma manbalardagi, shuningdek, xalq ruhiyatidagi mavjud milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning keng tarqalishi va ularning amaliyotiy odatdagi holga aylanib bormoqda. Birgina hadislarni olib ko'raylik. Hadishshunoslikning avj nuqtalari, uning jahoniy e'tiroflari bevosita bizning yurtimiz, yurtodoshlarimiz bilan bog'liq. Hadislarning o'rni va ahamiyati hozirgi hayotimizda ham tobora ortib borayotgani bejiz emas.

Bugungi kunda hadislarning boshlang'ich sinflarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalaridan munosib joy olib borayotgani ayni haqiqat. Bularning barchasi o'qituvchilarimizning hadislar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy, tarixiy manba va materiallardan kengroq foydalanishni taqazo etadi.

Ma'lum bo'lishicha, turkiy xalqlarning ilk yirik yozma adabiy yodgorliklaridayoq hadislarga alohida e'tibor berilgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida hadisi shariflardan juda umumli foydalanilgan. Ahmad Yugnakiy birinchilardan bo'lib hadislar mazminini she'rga ko'chirgan [38, 95-111.].

Abu Abdulloh al-Buxoriyning hayoti va ijodini o'rganish jarayonida mavzuni o'quvchilarga tushuntirishda Al-Buxoriyning "Al-jomi'as-sahih" va "Al-adab-al-mufrad" asari, hadis namunalari, Muhammad payg'ambar qissasi kabi qo'shimcha manbalardan, hadishshunos va islomshunos olimlar asarlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Hadislarning ma'no va mazmunini o'zlashtirishga kirishishdan oldin buyuk muhaddislar, ayniqsa, Imom Buxoriy shaxsiyati, u

kishining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlarni berish o'rinni bo'ladi.

«Muhaddis» - hadisni rivoyat qiluvchi olimdir. Ma'lumki, islom dini paydo bo'lib, asta-sekin boshqa o'lkalarga ham yoyila boshlaydi. Sahobalar ham shu o'lkalarga tarqalib ketadilar. Ular o'zlari bilan hadislarni ham olib borib aholi o'rtasida targ'ib eta boshlashadi. Bular to'g'ri, ya'ni sahih hadislar edi. Ammo keyinchalik turli-tuman milliy-siyosiy ixtiloflar yuzaga kela boshlaydi. Shu paytda ayrim bir guruhlar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda yolg'on hadislarni ham to'g'ri boshlagan. Shunga ko'ra, haqiqiy va sohta hadislarni farqlash zaruriyati yuzaga kelgan. Bu hadislarni faqat og'zaki tarzda eshitishning o'zi kifoya qilmasligini, ularni yozib olish zaruriyatini paydo qilgan.

Bu borada eng katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan buyuk olim Imom Buxoriydir (hijriy 194-yil 13-shavval (milodiy 810-yil 13-shavval) — 256-yil (milodiy 870)). U kishining asli ismlari Muhammad bo'lgan. Al-Buxoriy o'zlari mansub bo'lgan shaharga nisbatan olingan bo'lib, u kishining ilmiy taxalluslari sifatida e'tirof etilgan.

Imom Buxoriyning otalari — Ismoil hadis ilmidan ancha tanilgan olimlardan biri edi. Afsuski, u kishi juda erta vafot etadi.

Yosh Muhammad juda qobiliyatli bola edi. Buni ilk marta uning onasi ilg'aydi va farzandidagi yaxshi fazilatning ko'payishi uchun astoydil harakat qiladi. U o'zining quvvayi hofizasi — yod olish iqtidoriga ko'ra tengdoshlaridan ancha o'zib ketgan edi. Hatto, o'n-o'n bir yoshlarida saboq berayotgan ustozlaridagi ayrim noaniqliklarni ham to'ldirganliklari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

O'n olti yoshlarida onasi va akasi Ahmad bilan Haj safariga (210-yil) boradi. Haj mavsumidan keyin onasi va akasi Buxoroga qaytishadi. Muhammad esa, hadis ilmi talabida Makkada qoladi. O'zining e'tiroficha, u hadislarni bir ming sakson kishidan yozib olgan.

Uning o'n besh ming hadisni o'n olti kunda yod olgani mashhurdir. Yoki uni sinash uchun o'n kishining o'ntadan hadisini buzib aytganlarida, uning barcha hadislarni noto'g'ri va to'g'ri shakllarini qiyoslab berganlari atrofda g'ayratiga hayratga sabab bo'lgan.

«Muhammad ibn Abu Hotim quyidagi xabarni Abul Azhardan olganliklarini aytib, bunday deydilar: «Samarqandda to'rt yuz hadis ulamolari bor edi. Bir kuni ular bir joyga to'planishib, yetti kun davomida Imom Buxoriyni imtihon qilishdi, maqsadlari u kishini

ilmi hadis borasida yanglishtirib, mag'lub qilish edi. Shul boisdan ular Shomga mansub hadislar isnodini Iroqqa mansub hadislar isnodi bilan va Iroqqa mansub hadislar isnodini Shomga mansub hadislar isnodi bilan hamda Makkaga mansub hadislar isnodini Yamanga mansub hadislar isnodi bilan almashtirib qo'yishdi. Ammo ular harchand urinmasinlar? Na isnod va na matn xususida ul kishini zarracha chalkashtira olmadilar" [2, 40–42].

Umumiy o'rta ta'lim maktabalari, akademik litseyilar uchun tuzilgan dasturga muvofiq darsliklarda hadis va muhaddislar hayoti haqida ixcham ma'lumotlar beriladi. Darslikdagi hadislarini sharhlagacha o'tishdan oldin *hadis* so'zi izohlanadi.

Hadis so'zi asli arabcha bo'lib, «xabar, gap, yangilik» degan ma'nolarni bildiradi. Sodir bo'lgan, rivoyat qilingan ma'nolarini bildiradi. Alisher Navoiy asarlari matnida hadis - so'z, payg'ambar so'zlari, hikoya demak, gapirmoq ma'nolarida keladi.

Hadislar kitobi – Islom dini ta'limi bo'yicha Qur'oni Karimdan keyin turadigan mo'tabar manba bo'lib, Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati haqidagi hikoyalarni, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.

«Hadis» tushunchasini mutaxassislar quyidagicha talqin qilishadi:

I. Alloh taolo ul zotga nozil qilgan shariat hukmlariga oid so'zlari hadis bo'lib, ularni ushbu to'rt holatda bayon qilganlar:

1) amr qilmoq bilan, ya'ni sahobalariga biror narsaning ijrosi haqiga buyruq bergan; 2) nahiy qilmoq bilan, ya'ni ularni biror ishdan qaytargan; 3) taqrir qilmoq bilan, ya'ni ularning so'zlari va xatti-harakatlarini ma'qullab, biror to'xtamga kelgan; 4) nafi qilmoq bilan, ya'ni ularning so'zlari va xatti-harakatlarini inkor etgan hollarida.

II. Janobi Payg'ambarimiz salolohu alayhi vasallamning o'z fe'l-atvorlari ham hadis bo'lib, ul zot qilgan va sahobalar tomonidan «Rasululloh shundoq qilgan edilar» deb naql etilgan amallardir. Bunday amallarni rasululloh sallolohu alayhi vasallamning o'zlari bajarib ko'rsatgan hollarida bayon etganlar.

III. Hazrati Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallamning sukut saqlashlari ham hadis bo'lib, buni uch holatlarida namoyon qilganlar: 1) ba'zi sahobalari ul zotga biror taklifni aytisalar, (shuni ma'qullab) sukut qilgan hollarida; 2) ul zotning huzurida biror amalni qilsalar, (shu ishdan qoniqganlari ma'nosida) sukut saqlagan hollarida; 3)

ba'zi so'zlar aytilganida yoki u kishidan uzoq joyda biror ish qililib, so'ngra uning xabari yetkazilsa, (shu ish Rasulullohning o'zlariga ma'qul tushganini bildirib) sukut etib qo'ygan hollarida» [22, 6-7].

Hadislarida farz, vojib, sunnat, mustajob, halol, harom, makruh singari islomiy tushunchalar haqidagi ma'lumotlardan tashqari, axloq-odob masalalariga ham katta o'rin ajratilgan. Dastlab hadislar yozib olingan emas, ular avlodidan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Keyinchalik bunday holatda ayrim o'zgarishlar, hatto atayin boshqacharoq talqin qilishga mayl va rag'bat sezila boshlagan. Shunda hadislarini asl manbalarini ko'rsatgan holda yozib olish boshlangan. Bu borada muhaddislar sultoni va imomi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy juda katta shuhrat qozongan. U hayoti davomida to'plaganolti yuz ming hadis ichidan etti ming uch yuz to'qson yettitasini sahih (ishonchli) hadis sifatida o'z kitobiga kiritadi.

Darslikdan o'rganish uchun o'n to'qqizta hadis tavsiya etilgan. Shulardan biri «Munofiqlikning alomatlari» sarlavhasi ostida berilgan hadisdir.

Rasululoh (s.a.v.) aytganlar: «Quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiqlik bo'lgandir, kimdagi ulardan bittasi bo'lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan deyiladi: *omonatga xiyonat qilgandir*; so'zlasa, yolg'on so'zlagandir; *shartnoma* tuzsa, shartida turmagandir; urishib qolsa, *kek saqlagandir* va *nohaqlik qilgandir*».

Albatta, hadislar tahlilida ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning mavjud hayotiy va adabiy tajribasiga tayaniladi. Yuqoridagi hadis tahlilini ifodali o'qishdan boshlash mumkin. So'ng hadisda urg'u berilayotgan to'rtta yomon xislatni ajaratish talab etiladi. Bular:

- 1) *omonatga xiyonat*;
- 2) *yolg'on so'zlash*;
- 3) *shartnoma (ahd)ni buzish*;
- 4) *kek saqlagash* va *nohaqlik qilishdir*.

Matndan izohlab so'zlar ajratilib tahlilga tortiladi. Ma'lumki, omonat tushunchasi so'zni ham, moddiy narsalarni ham nazarda tutaveradi. Omonat so'zi rang-barang ma'nolarni anglatadi. Lig'atlarda uning «ishonchlilik; to'g'rilik, halollik; saqlash uchun berilgan narsa;

tuhfa, meros; saqlab berish, vaqtincha foydalanish yoki boshqa bir kishiga eltib berish uchun topshirilgan moddiy yoki ma'naviy narsalar; [49, 124] saqlab berish uchun topshirilgan har bir narsa; roctgo'ylik, to'g'rilik; ahdda vafo; sidq, sadoqat [41, 64] va boshqa ma'nolari qayd etilgan. "Hech kimga aytmaslik yoki kimgadir erkazish sharti bilan aytilgan so'z ham omonat hisoblanadi. Agar shu shart buzulsa, omonatga xiyonat qilingan bo'ladi. Boshqa bir hadisda "Omonatni saqlab, vaqtda qaytarish kishining rizqini ziyoda qiladi. Omonatga xiyonat qilish esa, qashshoqlik keltiradi" deyilgan.

Inson bolasi har doim rostgo'y bo'lishi, yolg'ondan qochishi kerak. Yolg'on so'z kishini bebud, sharmanda qiladi, rost so'z esa uni har doim nojoiz holatlardan saqlab qoladi. Xalqimizda

- Yolg'on aytib foyda ko'rsang,
- Oxiri zarar toparsan,
- Rost aytib zarar ko'rsang,
- Oxiri foyda toparsan.
- Yolg'on gapirib yashagandan,
- Rost gapirib o'lgan yaxshi.
- Yolg'onning umri qisqa.
- Yolg'onchi yorilib o'lar.
- Rost gapga zavol yo'q.
- To'g'ri so'z — qilichdan o'tkir.
- degan maqollar bejiz paydo bo'lgan emas.

Uchinchi band ahd va unga vafo qilish ustida bormoqda. Mardlikning bosh belgilaridan biri kishining o'z so'zining ustidan chiqishida ko'rinadi. Bu bandning ham tegishli misollar bilan dalillanishi, izohlab berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, hadisi shariflarning o'zida "Imonli odam va'daga vafodor bo'ladi", deb bejiz aytilgan emas.

Kek saqlash va nohaqlik qilish esa, odamlardagi eng yomon xislatlardan hisoblanadi. Inson hayoti juda qisqa. Shuning uchun ham, mana shu qisqa umr davomida kishilar bir-birining ko'nglini qoldirmasligi, ayrtimagan sabab va bahonalar bilan boshqalarga nisbatan gina va kek saqlamasliklari vojib. Aks holda, u munofiklar qatoriga kirib qoladi.

Hadislarning xususiyati shundaki, ular muayyan yaxshi xislatlarni egallashga targ'ib, aksincha, yomon xislatlardan qutulishga da'vat ruhi bilan sug'orilgan. Masalan, bir hadisda shunday deyiladi: "Abu

Xurayra aytadilar: Rasulluloh "Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin deb o'n marta takror qildilar. Shunda Sahobalar: "Kimni aytyapsiz?", — deb so'radilar. Rasulluloh: "Ota-onasi yoxud ulardan bittasi keksayib qolgan vaqtda ularni rozi qilmay, o'zini do'xaxga tushishga muhtalo qilgan kishini", — dedilar.

Quyidagi hadisda uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz, Allo taolo qoshida maqbul bo'lishi ta'kidlanadi: mazlum kishilar duosi, musofirning va ota-onaning duosi.

Hadislarning o'zini o'rganishdan tashqari, ularni ayrim shoirlarning ijodidagi qo'llanishi bilan bog'lab tushuntirish ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Arbayin (qirq) hadis" asaridan namunalarni kuzatish mumkin. Masalan, hadisi sharifda "Jannat onalaringiz oyog'i ostidadur", — deyilgan. Alisher Navoiy esa uni quyidagicha ifodalaydi: Onalarning ayog'i ostidadur

Ravzai jannat—u jinon bog'i.

Ravza bog'in visolin istar ersang,

Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

Hadislarda ilm olishga alohida e'tibor beriladi:

«Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga intilish har bir mo'minga farzdur».

«Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo'lib u foydalidir. Ikkinchisi tildagi ilm bo'lib, u tangri huzurida banda zarariga dalil bo'ladi».

"Ilm o'rganish har mo'min uchun farzdur. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab istig'for (tavba qilmoq) aytadi".

«Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir».

Ilm ibodatdan afzaldir, taqvo dinni tutib turuvchi (ustun)dir.

«Beshikdan qabrgacha ilm izla».

Bu hadislarni tahlil qilib, sharhlash o'quvchilarning ilmga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Ayniqsa, ularning ma'nosini izohlashda hayotiy misollarga ko'proq tayanish hadislar ma'nosini to'laroq idrok etish uchun yaxshi yordam beradi. Hadislarni o'quvchilar qalbga jo qilish adabiyot o'qituvchilarining muqaddas burchidir, chunki kelajak avlod yuragiga payg'ambarimiz o'g'itlarini singdira olsak, jamiyatga chin ma'nodagi oqil kishilarni yetkazib bergan bo'lamiz.

NAVOIY ASARLARINI SHARHLAB O'QISH

Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan shunisi bilan farqlanadiki, unda nafaqat bilim beriladi, balki o'quvchilar so'zdan, badiiy so'zdan zavq olishga, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni estetik ideal asosida badiiy idrok qilishga o'rgatiladi. Shu bois ham, bolaning yuksak ma'naviyatli komil inson sifatida shakllanishida adabiyot fani va o'qituvchisining o'rni va roli beqiyosdir. Boshqacha aytganda, adabiyot o'qituvchisi sinfidagi har bir o'quvchining taqdiri: buguni va ertasi uchun mas'ul shaxslardan biri sanaladi.

Madaniyatimiz va ma'naviyatimiz rivojiga munosib ulush qo'sha olgan, o'zbek she'riyatini dunyoga tanitgan buyuk bobomiz Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan mashg'ulotlar o'ziga xosligi bilan ajralib turmog'i lozim. Chunki Alisher Navoiyni anglash o'zlikni anglashdir. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "Agar bu ulug' zotni avliyohi desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir".

Bugungi kunda Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitish juda yaxshi yo'lga qo'yilgan deya olmaymiz. Vaholanki, Alisher Navoiy ijodini puxta o'rganish o'quvchilarimiz uchun juda ko'p narsalarni beradi. Sevimli shoirimiz Sirojiddin Sayid ta'kidlaganidek:

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qo'rqishi kerak.
Har bir bola,
Har bir yosh
Navoiyni o'qishi kerak.
Vatan azal bitta vatandir,
U biz uchun so'lmas chamandir.
Shul sababdan bola chog'lardan,
Maysa chog'lar, lola chog'lardan
O'zni urib-yulqishi kerak,
Alisher Navoiyni o'qishi kerak,
Dilga neder yuqishi kerak! [62, 10].

Darhaqiqat, biz ham Alisher Navoiy she'riyatini tahlil qilishdan tashqari, uni bor bo'yicha – go'zalligi, nafisligi, jozibasi bilan his qilishni va shundan zavqlanishni o'rganishimiz lozim. Bunda,

bizningcha, matnni sharhlab o'qitish maqsadga muvofiq. Shu bois ham, Alisher Navoiy g'azallarini maktab o'quvchilariga o'rgatishda bu usuldan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Maktab dastur va darsliklaridan o'rinni olgan g'azallaridan biri bu «Jong'a chun dermen...», deb boshlanuvchi g'azalidir. G'azal Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniyni»ning to'rtinchi devoni – «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydolari»)ga joylashtirgan.

G'azal ishqiy-falsafiy mavzuda yozilgan. Oshiq isitma ichida yotibdi. Isitma shu darajada balandki, oshiqning ko'ziga, hatto joni ko'rinib ketadi. Shunda u buning sabablarini izlay boshlaydi. U savol bilan jonga murojaat etadi:

Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?"

Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati".

Bu erda jon va tan (jism)ning o'zaro muloqotlari aks etgan. Jon savolning javobini tanadagi kasallik – haroratning ko'z-tariganligi bilan izohlaydi. O'z-o'zidan lirik qahramon Jismga yuzlanadi:

Jismdin so'rsamki: "Bu va'zing'a ne erdi sabab?"

Der: "Anga bo'ldi sabab o'tlug' bag'irning hirqati".

Ko'rinyaptiki, Jism ham tegishli tarzda javob beradi. Uning javobi ham ishonarli va dadil. Asosiy sabab – bag'ir. Shu o'rinda bag'irning mumtoz adabiyotimizda ham yurak, ham jigarni ifodalashi aytib o'tilishi kerak. Ammo isitmaning ko'proq jigar xastaliklari bilan aloqador bo'lgani uchun, «bag'ir»ni bu o'rinda jigar yoki qorataloq o'rinda qabul qilish joizroq ko'rinadi. (Buning yana bitta asosiy sababi shuki, keyingi baytda yurak – ko'ngil alohida uzv sifatida maydonga chiqadi). Unga bog'liq bo'lgan «hirqat» so'zi ham bir ma'noli emas. Lug'atlarda unga «kuyish, yonish; kuydirish, yondirish; g'am, qayg'u» singari ma'nolar berilgan [29, 774].

Demak, jismning ko'rsatishicha, aybdor – bag'ir. Shuning uchun ham, so'roq navbati unga yetishadi:

Chun bag'irdin so'rdum, aytur: "Andin o't tushti manga

Kim, ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati".

Demak, Bag'irni ham oqlaydigan sabablar bor. U barcha ko'ngilarning sababchisi sifatida Ko'ngilni ko'rsatmoqda. Ko'ngilga ishq chaqmog'ining chaqnashi tufayli olov tushgan. Bu ishq olovi bo'lib, u ko'ngilga shu'la solgan. Shu'la olovlanib, oxir-oqibat ofatga aylangan. U olov ichida qolgan.

Lirik qahramon bunday javobni ham mantiqli hisoblaydi. Shuning uchun ham, hodisa mohiyatini oydinlashtirishda davom etadi.

Navbatdagi javobgar, tabiiyki, Ko'ngil bo'ladi. Lirik qahramon o'zining mazkur holatiga sabab bo'lgan Ko'ngilga g'azab bilan murojaat etadi:

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: "Ko'zdindur gunah,

Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati".

Xalqimizda «Ko'z ko'rmasa, ko'ngil orzulamas» degan maqol bor. Ko'ngilning javobida shu maqoldagi mazmun mujassamlashgan. Agar ko'z ishq oloviga sabab bo'lgan ob'ektni — yor (mabhuba)ni ko'rmaganda edi, bunday noloyiq ishning tuhmati bizga tushmas edi.

Endi javobgarlik boshqa bir uzvga yuklatiladi. Bu ko'zdir. Jondan Jismga, undan Bag'ir va Ko'ngulga murojaat qilib, tegishli qanoat hissini topmagan lirik qahramonning sabri ham tugab boradi. Shunga ko'ra, uning murojaat ohangida ham o'zgarishlar seziladi. Bosiqlik bilan boshlangan dastlabki savoldan, sekin-astalik bilan bezovtalikka, undan qahr u g'azabga o'tgan lirik qahramon endi o'zini tiya olmaydi. Unda haqoratga maylu rag'bat seziladi. U ko'zni tardoman, yuzi qaro deya «so'kadi»:

Ko'zga chun dermenki: "Ey, tardamoni¹ yuzi qaro,

Sendin o'lmish telba ko'nglumning balovu vahshati?"

Albatta, bu erda ko'zning har doim namlangan holda bo'lishi, ko'z qorachig'ining oqlik (yuzning ifodasi) ichida bo'lishi yuqoridagi ifoda uchun imkon berganligini alohida izohlash kerak. Shunda bayt zamiridagi badiiyat yanada ravshanroq tarzda ilg'ab olinadi. Demak, ko'z ko'ngil giriftor bo'lgan barcha balo va qo'rqinchlarning, ozurdalikning asosiy gunohkori sifatida e'lon qilinadi.

Javob navbati ko'zga keladi. U javob berishda yig'lab turadi:

Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q edi menda ham ixtiyor

Kim, ko'rundi nogahon ul sho'x mahvash tal'ati".

Yig'i e'tiroz yoki e'tirofning o'ziga xos ifodasidir. Ayniqsa, noo'rin ta'na va malomatlar bo'lganda ko'z yig'i bilan mashg'ul bo'ladi. Bu erda ham shunday vaziyat paydo bo'lgan: ko'z tasodifan, o'ziga bog'liq bo'lmagan holda, «ul sho'x mahvash tal'ati»ni ko'rib qolgan, xolos. Shu tarzda barcha uzvlar o'z uzr va asoslarini aytishadi. Bularning barchasi oshiq tomonidan qabul qilinadi va mantiqiy asos sifatida e'tirof qilinadi. Demak, oshiq — lirik qahramon ularning

barchasini aybsiz deya qabul qiladi. Bosh sababchi ham ayon bo'ladi. Demak, u o'sha «nogahon ko'rungan» «ul sho'x mahvash tal'ati»dir. «Taqdirga tag'yir yo'q» deb hukm chiqaradi xalq maqoli. Demak, ishqqa muhtalolik oshiqning qismatidir. Yakuniy bayt mana shu haqiqatni oydinlashtirishga xizmat qiladi:

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy

Kim, sanga ishq o'ti o'q erish azalning qismati.

G'azal mazmunini tushunishda uning ayrim shakliy-poetik xususiyatlarini ham izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'azal yetti baytdan iborat. «Kayfiyati», «shiddati», «hirqati», «ofati», «tuhmati», «vahshati», «tal'ati», «qismati» so'zlari qofiyalarni tashkil etadi. Bu qofiyalarga ancha jiddiy mantiqiy urg'u tushayotganini ham ta'kidlash joiz. Shuningdek, g'azal aruzning ramali musammani mahzud vaznida yozilgan bo'lib u quyidagicha o'qiladi:

- v - - | - v - - | - v - - | - v -

fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lun

- v - - | - v - - | - v - - | - v -

fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lun

Ayrim hollarda sharh va izohlar jarayonida muallif haqida uning zamondoshlari yoki buyuk shaxslarning fikr-mulohazalaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda shu usuldan foydalanish mumkin. Boshqa hollarda esa, bevosita asarga, uning yaratilishi yoki mazmuniga oid sharh va izohlarga zarurat seziladi. Ko'plab shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodini o'rganishda ham shu usulga murojaat etish ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"SABR ARCHI KISHIGA RANJ AFZUN AYLAR..."

Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,

Oxir kishi folini humoyun aylar,

Sabring nechakim ko'ngulni mahzun aylar,

Ham sabr seni zafarga maqrun aylar.

Alisher Navoiyning mashhur ruboiysi ulug' shoirning o'g'itnomalaridan biri hisoblangan "Nazm ul-javohir" asaridan olingan. To'rtlikda sabr va uning fazilati haqida gap boradi. Aslida unga «Sabruka yuvras uz-zafaru» deb sarlavha qo'yilgan. Bu «Sabr g'alaba keltiradi» demakdir. Sabrning lug'aviy ma'nosi «chidam, bardosh, iroda, qat'iyat demakdir [49, 411].

Ushbu to'rtlikni sharhlashda hadis shariflarga, xalq maqollariga,

¹ Tardomon — ifloslik, buzaqlik, axloqsizlik.

riyovatlarga, boshqa shoir va yozuvchilarning shu mavzudagi asarlariga, hayotiy misollarga urg'u berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, hadisi shariflarda bu haqda, jumladan, shunday deyiladi:

Qaysi birlarinda jahlu g'azab qo'zisa, darhol u sukut saqlashga o'tsin [8, 28].

Sabrlik musibatning birinchi daqiqalarida bilinadi [8,46].

Sabr va bardosh Tangridan, shoshqaloqlik esa, shaytondandir [8, 66].

Kurash tushib yiqitgan emas, balki g'azabi kelganda o'zini bosib olgan odam kuchlidir.

Imonning afzali — sabr va keng qalbli bo'lishdir [8, 34].

Boshqa misollarni esa, o'quvchilarning o'zlaridan eshitish, ularning mazmunini birgalikda sharhlash, izohlash mumkin. Bunda har bir hadisning hayotiy misollar bilan dalillab borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalq maqollarida kishini o'ylab ish qilishga, qiyinchiliklarda bardoshli bo'lishga, sabr qilgan odamning pushaymon bo'lmashligiga undaydigan ko'plab namunalar mavjud.

Azob ko'rmay rohat yo'q.

Arg'umoq birda yolli, birda yolsiz.

Er yigit birda molli, birda molsiz.

Sabr tog'ni yiqitar.

Toqat qilsang, tog' egilar,

Sabr qilsang, bog' egilar [51, 215-220].

Boshqa ijodkorlarning asarlarida ham sabr va uning fazilatlariga haqida yuqoridagi fikrlarga uyg'un holatlar oz emas. Gulxaniyning «Zarb ul masal-i ham shular qatorida turadi. Unda sabr haqida shunday misralar keltirilgan:

Sabr bilan basta eshikdur kushod,

Sabr bilan topdi eranlar murod.

Sabr sening dardingga darmon bo'lar,

Sabr bilan xor guliston bo'lar.

Basta eshik ochg'usidir sabr, bil,

Sabr qilu sabr qilu sabr qil [12, 23].

Tasavvufiy tushunchada sabr - insonning o'z taqdirini Ollohdan ekanligini anglashi va unga rozi bo'lmog'idir. Bahouddin Naqshbandning «Biz bor bo'lsa shukr qilamiz, yo'q bo'lsa sabr qilamiz» degan hikmatlari bejiz emas.

Malumotlarga ko'ra, «sabr» so'zi Qur'oni Karimda yetmish

martadan ortiq zikr etilgan ekan [28, 103]. Sabr ko'plab nomunosib ishlarning to'xtatib qoluvchisi, ayni paytda ko'plab yaxshi fazilatlarining sarchashmasi hamdir. Darhaqiqat, Qur'oni Karimning «Sod» surasida Ibrohim, Is'hoq, Ya'qub va Ayyublarning yaxshi bandaligi ularning «sabr qiluvchi holda» ekanligi bilan izohlanadi [55, 512].

«Qur'on o'rgatgan sabrli, sabotli bo'lish haqiqat va yomonlikni yo'qotish yo'lida, qiyinchiliklarga bardosh berish, odamlarning ozorlariga chidash, kambag'allik, kasallik va yaqin kishisini yo'qotish kabi musibatlarga bardosh berishdan iboratdir» [28, 103].

Mana shuning uchun ham, Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, tasavvuf she'riyatida sabrga alohida o'rin ajratilgan, uning insonni ma'naviy jihatdan kamol topishidagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Prof. N. Komilovning ko'rsatishicha, sufiylar tarbiyasida sabr tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, muroqaba, rizo singari fazilatlar bilan bir qatorda turgan. Zero, «sabr — solikning e'tiqodi, niyatini sinash. Haq yo'li og'ir va mushkil yo'luning azobu iztiroblariga chidagan kishigina maqsadga erishadi. Tariqat yo'lovchisi sabr manzilidan o'tsa, ajib bir ruhiy dovondan o'tgan, yangi kuch-qudrat topgan bo'ladi» [18, 178].

Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etilgani yaxshi ma'lum. Jumladan, «Hayrat ul-abror» dostonida ham alohida (yettinchi) maqolotning qanoatga ajratilgani bejiz emas.

Kimgaki ish bo'ldi qanoat fani,

Bilki, ani qildi qanoat g'ani...

Shoh ul ermaski, boshig'a quydi toj,

Shoh ani bil kimi, yo'q anga ehtiyoj [3, 165].

Kimki qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa,

Bilki, qanoat uni boy qiladi.

Boshiga toj kiygan kishi shoh bo'la bermaydi,

Hech narsaga ehtiyoj bildirmagan odamni shoh deb bil [7, 59].

Maqolada bitta hikoya ham keltirilgan. Unda bir «qanoat qiluvchi juvonmard bilan ta'magir jahongashtaning hamroh bo'lgani, birining farog'at boyligiga berilganidan xorlik azobiga qolgani, ikkinchisining qanoat azobini chekishi tufayli farog'at boyligiga erishgani» tasvirlanadi.

«Mahbub ul-qulub»ning «Darveshlar zikrida» deyilgan faslida

ham bu borada ancha mo'tabar fikrlar mavjud: «Qazodin ne kelsa, o'zlarin rizog'a yosobturlar va olam ahlining qotig' ranj va irik malomatig'a chidabturlar. Yemak-ichmakdin kechibturlar. Haq rizosin istarda g'am yeb va qon ichibturlar» [6, 47]. Shu asarning o'zida «Qanoat bobida» hamda «Sabr zikrida» degan maxsus fasllar ham kiritilgan. Unda yozilishicha, «Qanoat ibodat quvvati hosil bo'lg'oncha quvvat bila o'tkarmakdur va andin ortug' barcha nimaning havasin xayoldin ko'tarmakdur. Va benavolig' bila nafsni ozurda tutmakdur va mahrumlig' bila quvoyi shahvoniyini pajmurda qilmoqdur.

Qanoat chashmaedurkim, suvi olmoq bila qurumas va maxzanedurkim, naqdi sepamoq bila o'kumas va mazraedurkim, tuxmi izzat va shavkat bar berur va shajaredurkim, shoxi istig'no va hurmat samar keltirur...

Qone' darveshning qurug' noni tome' shohning xitoyi xonidin xo'broqdur... Shoh uldurkim, olmag'ay va berg'ay. Gado uldurkim, sochmag'ay va tergay» [6, 532-541].

Sabr zikrida boshqa fikrlar qatorida bir hikoya ham keltiriladi. Unda tasvirlanishicha, «bir notavon ko'nglida bir go'zal (guluzor)ning orzusi paydo bo'ladi. U tuhtmatga uchrab zindonga tushib qoladi. Uni iqror qildirish uchun bermagan azoblari qolmaydi. Ammo u o'z ko'nglidagi maxfiy sirni tiliga chiqarmaydi. Uni kaltaklashadi, hatto yog'ochlar sinib ketadi, terilari shilinadi. Badanining qon oqmagani yeri qolmaydi.

Uni aybiga iqror qildira olmagach, o'z holiga quyishdi. Jafakorlar uzoglashishi bilan javokash bechora og'zidan bir papchaqlanib ketgan diramni chiqardi. Uni ko'rib turganlar bu holning sababini so'rashdi. Ma'lum bo'lishicha, uni so'roq qilayotganlarida o'sha mahbuba pinhona uni kuzatayotgan, o'zi esa, kuzatilayotganini sezib turgan ekan. Unga azob berayotganlarida bunga chidash uchun o'sha tangani tishlari orasiga olib, qattiq tishlar ekan. Shunday qilib, u o'z mahbubasi oldida sabru tahammul ko'rgo'zgan ekan. Mahbuba ham buni bilib, shafqat bilan uning qoshiga keladi hamda «chuchuk so'z bilan yaralariga malham yetkazadi». Natijada, «xayolig'a kechmas davlatg'a sazovor bo'ldi va gumonig'a o'tmas odatg'a komgor bo'ldi» [6, 57-58].

Gulxaniyning «Maymun bilan Najor» masalini o'rganish ham maktab dastur va darsligidan o'rin olgan. Dastlab, Gulxaniyning hayoti va ijodi hamda uning adabiyot tarixida juda katta voqea bo'lgan «Zarbulmasal» asari haqida ma'lumot beriladi: «Zarbulmasal» Qo'qon xoni Amir Umarxon(1787 – 1822) ning taklifi bilan yaratilgan. Asarni o'qish va tahlil qilishga kirishishdan oldin uning nomi sharhlanadi: «Zarbulmasal» masallar to'plami demakdir. Ammo bu asar faqat masal janriga daxldor bo'lgan asarlar to'plami degani emas. To'g'ri, unda «Maymun bilan Najor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan Chayon», «Bozanda va novozanda» («Raqqosa va Xonanda»), «Biyno va Nobiyono» («Ko'ruvchi va Ko'r») singari masallar bor. Ammo ular, garchi, alohida olinganida mustaqil asar sifatida e'tirof etilsa-da, aslida asardagi asosiy qoli plovchi hikoya qahramonlarining fikrlari uchun qo'shimcha asos vazifasini ado etishgan.

Asarning o'zak qismini Yapaloqqushning o'z o'g'li Kulonkir sultonga Boyo'g'lining qizi Gunashbonuni olib berishi haqidagi voqealar tashkil etadi. Ana shu voqealar tasviri davomida ko'plab milliy urf-odatlar, rasmlar-rusumlar ham tasvirlanadi. Shu bahonada juda ko'plab insoniy fazilat va nuqsonlar haqida mulohazalar bildiriladi.

Gulxaniy, ayniqsa, o'zbekona muomala va odob-axloq me'yorlarini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan.

Asarda tadbirkor, oqil, dono, mehribon, vafoli, sodiq kishilar ulug'lanadi, loqayd, epsiz, nodon, urushqoq, yolg'onchi, dilozor kishilar qoralanadi.

Yozuvchi Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy singari buyuk adiblar qalamga olgan odil hukmdorlar haqidagi tasavvurlarni o'ziga xos tarzda boyitadi. Ayni paytda, zolim hukmdorlarning ham o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib beradi. Oddiygina qalin berish singari urf-odatlar tasviri jarayonida ana shunday katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammolarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Ko'rqush – jasoratli, haqiqatgo'y inson timsolidir. U insonning aqlu donishi, fahm-u farosati uning egallab turgan amali, qilayotgan kasb-koriga bog'liq emasligini Yapaloqqush, Boyo'g'li, Kordon, Kulonkir sulton kabi katta amaldordlar misolida ko'rsatib beradi.

Ayni paytda, ularning farosatsizligi, ochofatligi, baloxo'rligining el-yurt uchun ham bitmas-tuganmas kulfat manbai ekanliklarini fosh etadi. Bunday holatlarda kirish mashg'ulotlarining o'rni katta bo'ladi. Chunki kirish mashg'ulotlari o'quvchilarni badiiy asarni idrok etishlari uchun juda puxta zamin hozirlaydi, ayni mana shu kirish mashg'ulotlari asar muallifiga, uning asariga bo'lgan qiziqishlarni oshiradi, asarda tilga olingan asosiy ijtimoiy-tarixiy hamda ma'naviy, badiiy-estetik muammolar ustida o'quvchilar diqqatining to'planishi uchun imkon yaratadi.

«Maymun bilan Najjor» masalini o'rganishdan oldin o'tkaziladigan kirish mashg'ulotlarining mazmuni turli-tuman bo'lishi mumkin. Amaliyotda uning quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi ko'proq uchraydi:

1. Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.
2. Gulxaniy va «Zarbulmasal» asari haqida ma'lumot.
3. «Zarbulmasal» va uning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni haqida.
4. Masal janrining o'ziga xos xususiyatlari va Gulxaniy masallari haqida.

Mana shundan keyingina darslikda berilgan «Maymun bilan Najjor» masalini sharhlashga o'tiladi. Sharhlash ifodali o'qish bilan parallel olib borilishi mumkin. Zero, o'qish, matn bilan bevosita muloqot bo'lib, asarni dastlabki tarzda tasavvur etish va idrok qilishning, undagi g'oyaviy-badiiy obrazlar tizimini his etishning asosi hisoblanadi. O'quvchilarning hayotiy hamda kitobxonlik tajribalari ortgan sari asarni idrok etishdagi yuksalish ham ko'proq sezila boradi.

Masalning hajmi unchalik katta emas, shuning uchun ham, uni sinfning o'zidayoq to'la o'qish mumkin. Masal iarkibida anchagina so'zlar borki, o'quvchilar ular bilan ilk marta duch keladi. Shuning uchun ham, bu so'zlar izohlanishi lozim. Buni bir necha usulda amalga oshirish mumkin:

1. Bevosita matnni o'qish oldidan yozuv taxtasiga shu so'zlar va ularning izohini yozish orqali.
2. Mazkur lug'at-izohlarni kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda ko'rsatish orqali.
3. Matnni o'qish jarayonida duch kelingan so'zlarni shu yerning o'zida izohlab borish orqali.

4. Matn bilan djastlabki tanishuv amalga oshgach, undagi har bir notanish yoki izohtalab so'zlarni sharhlash orqali.

Matnni kompyuter vositasida katta ekranga chiqarish mumkin. Shunda undagi izohtalab so'zlarni ajratib ko'rsatish imkoniyati kengayadi. Bunda izohlanayotgan so'zni kursivda yoki boshqa rangda yozish mumkin:

«Bor edi *Kashmir* navohisida tog'
Bog'i eram rashkidin ko'ksida dog'
 Anda imoratg'a yarog'lik *yag'och*,
 Yetti quloch, bo'yi o'n ikki quloch.
 Bor edi ko'p ne'matu *alvonlari*,
Xurram-u ma'mur edi hayvonlari.
 Zulf kabi *sunbuli xushbo'olari*.
 Rohatijon erdi oqar suvlari.
 Uydin ulug'roq edi bir *gubune*,
 Anda vatan tutmish edi maymune.
 Jon sotib o'zin o'yin etardi tan,
 O'qir edi qissayi hubb ul-vatan.¹
 Bir kuni *najjori xiradmandi fard*
 Ko'ngli *yag'och* yo'qlig'idin qildi dard.
 Bordi o'shal tog'qaki mavquf edi,
 Ezgu *yag'ochlar* anga ma'ruf edi.
Sharqning zindonidin ozod o'lub,
 Tog'ning *Shirining'a Farhod* o'lub.
 Sonur edi o'zini tog' *Xisravi*
 Tog'in o'qub *Dehlaviyi ma'naviy*.
 Alina *navkissalarin* qistari,
 Rasm edi *najjor yag'och* istari,
 Egdi u dil go'*shasining* pardasin,
 Belga suqib tesha bilan *arrasin*».
 Borib anga kesdi *yag'och reshasin*.
 Qo'ydi o'shal yerda unutib teshasin.
 O'zga tog'qa bordi-yu kesdi *yag'och*,
 Yormog'i *makrina* qildi iloj,
 Bolta bila bir uchini yordi ul,
 Pona qo'yib, tesha sari bordi ul.

¹ Bu satrning ma'nosi: Varannni sevish hikoyasini o'qir edi.

Tushdi *banogoh* anga maymun ko'zi
 Oqil-u dono sanab, ul dam o'zi,
 Aydi: «*Ulus* ichra bu bir kasbdur,
 Kasbini boshina kessang *nasbdur*.
Kiysai purzar emish elga hunar,
 Behunar elni dedilar *rishi har*.
 Men *daxi najjorliqni* o'rganay,
 Bolalarim barchasig'a o'rgatay».
Jahd qilib turdi *ravon* borg'ali,
 Ya'ni yag'och qolmishini yorg'ali...
 Mindi yag'och ustiga najjordek,
Kosibi purkardai purkordek.
 Ketdi hunar shavqi bila *g'ussasi*,
 Tushdi yag'och ayrisig'a dumchasi.
 Balki nedin bo'ldi tutulmoqliq'i,
 Mumkin emas o'ldi qutulmog'i.
Odami jinsida yo'q qissasi,
 Qoldi aning *dumchasining hissasi*.

Matn uchun lug'at:

Alvon – rang, tus, bo'yoq
Anda – u erda
Banogoh – tasodifan,
 kutilmaganda
Bog'i Eram – afsonaviy go'zal
 bog'
gulbune – gul daraxti, gul
 tupi(butasi)
go'shasi – burchak, zilvat, cheka
 joy
daxi – tag'in, yana
dumchasining hissasi – dumining
 bir qismi
Yormog'i makrina –
Jahd qilib – kirishmoq,

tirishmoq, astoydil urunmoq
al – qo'l
kosibi – kasb qiluvchi,
o'rganuvchi, *o'ziga oluvchi*,
hunarmand
kiysa – hamyon, cho'ntak
purzar – zar bilan to'la, zari
 ko'p
Kashmir navohisi – Kashmir
 atrofi, Kashmir tevaragi
mavquf – to'xtatilgan,
 to'xtatib qo'yilgan, qarab
 turiladigan
ma'ruf – taniqli, bilingan,
 mashhur, nomdor

ma'mur – obod
najjor – duradgor, imorat
 quruvchi usta
najjorliq – duradgordik
nasb – tiklash, biror mansabga
 tayin etish, bir narsani tikla
 (o'rnat)moq
navkissa – endigina (yangi)
 topilgan boylik
ne'matu alvonlari – oziq-ovqat,
 meva-cheva kabi tiriklik, maishat
 vositalari
odami jinsi – odam turi, odam
 avlodi
pona – narsalarni yorish, kesish
 yoki biriktirish uchun
 ishlatiladigan, bir uchi tig'li
 yog'och yoki temir
purkarda – ko'p ish qiladigan,
 ko'p ishlarni qoyimmaqom qilib
 bajarib qo'yuvchi, tajribali,
purkor – ko'p ish qiluvchi
 ishchan, tajribali
ravon – bu yerda tez, tezda

ma'nosida
resha – ildiz, tomir
rish – soqol
rishi har – eshak soqoli
sunbul – piyozgullar oilasiga
 mansub, lola bargiga o'xshash
 uzun bargli o'tsimon manzarali
 o'simlik va uning g'uj bo'lib
 ochiladigan xushbo'y, chiroyli
 guli.
Sunbuli xushbo' – xushbo'y
 sunbul
sonur edi – hisoblardi, qatoriga
 qo'shardi, ...deb bilardi
tog' Xisravi – *tog'ning podshohi*
ulus – el, xalq
fard – yakka, yolg'iz
Xiradmand – aqlli, dono,
 donishmand
Xurram – shod, xursand
Yag'och – yog'och, daraxt
G'ussa – g'am, qayg'u

Olimlarimizning ta'kidlashicha, «yaratilgan vaqti bilan asar voqealari kechgan davr o'rtasida farq bo'lgan matnlar ustida ishlashda tarixiy sharhga alohida zarurat seziladi. Bu xildagi asarlar sharhli o'qilmasa, o'quvchilar mumtoz adabiyotimiz namunalari - juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega madaniy merosimiz misolida Vatanimiz o'tmishi, jafokash xalqimizning azaliy qadriyatlarini, badiiy-estetik tafakuri tarixiga tegishli tarzda tushunib yetmaydilar, ma'naviy kamolotga erisha olmaydilar. Adabiy ta'lim shusiz muukammal bo'lmaydi»¹.

Masalda Bog'i Eram tilga olinadi. Bog'i Eram ertak va dostonlarda, mumtoz adabiyot vakillari asarlarida ko'plab ishlatiladi. Olamning

¹ Матчионов С. Бадийи асар матни устиди ишланиш. - // Тил ва адабиёт таянми, 2002, № 2, 9-бет.

yetti mo'jizasidan biri sifatida tan olingan bu bog' adabiyotimizga tinchlik, osoyishtalik, baxt-saodatning ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Uydin ulug'roq edi bir gulbune,
Anda vatan tutmish edi maymune.

Yuqorida keltirilgan bayt misolida *mubolag'* a san'atidan unumli foydalanilganligini ko'rish mumkin. Har holda, bir tup gulning butun boshli uydin katta bo'lishi xalqona mubolag'aning go'zal namunasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shahrning zindonidin ozod o'lub,
Bog'ni Shiriniga Farhod o'lub.
Sonur edi o'zini tog' Xisravi,
Tog'ni o'qub Dehlaviyi ma'naviy.

"Shahrning zindoni", «bog'ni Shirini» istioradir. Ayni paytda, Farhod va Shirin Alisher Navoiy va Hisrav Dehlaviy asarlarida uchraydigan qahramonlar nomi hamdir. Mumtoz adabiyotimizda u *tahme* deb yuritiladi. «Xisrav» ikki ma'noni anglatadi. Dastlab, uning tog'lik Xisrav degan ma'nosi ilg'anadi. Ayni paytda, bu so'zning "podsho" degan ma'nosi ham mavjud. Bunda u:

Aydi: «Ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbni boshina kessang *nasbdur*.

Arab yozuvida "kasb" so'zining bosh (birinchi) harfi (kof - k) kesib tashlansa, bu so'zning "sin" va "be" harflari qoladi, u "sab" deb o'qiladi. "sab" esa lug'atlarda "dashnom", "haqorat" ma'nolarini [42, 163] anglatadi. Bu misrada shoir so'z o'yini qilib, "kasbsiz odamning nasibasi dashnom va haqorat bo'ladi, xolos degan hukmni bildirmoqda.

Shu tarzda asardagi notanish so'zlar, ifoda tasvir vositalari, shevaga xos sozlar izohlanadi. Bularning barchasi shoir ko'zlagan maqsadga bo'ysundirilgani misollar asosida ko'rsatib o'tiladi.

Dars jarayonida sharhlash usulidan keng foydalanish asar mazmunini to'laroq idrok etishga mustahkam poydevor vazifasini ado etadi.

"ALPOMISH" DOSTONINI SHARHLASH

Adabiyot darslarida tahlil etishga mo'ljallangan asarlarning hajmi ham, janrlari ham nihoyatda rang-barang. Shuning uchun ham, ularning ayrimlari to'raligicha, ayrimlari esa, parchalar holda o'rganiladi. Har ikki holda ham asosiy urg'u asarning bosh badiiy-estetik mohiyatini oydinlashtirishni ko'zda tutadi. Shunday holatlarda tegishli sharh va izohlarning o'rni va ahamiyati yanada ortadi. M.Mirqosimovanning uqtirishicha, badiiy asarlarni ifodali, ijodiy yoki sharhli o'qish usullari "o'quvchining badiiy idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi" [26].

Ayniqsa, asarning parchasi orqali o'rganish jarayonida tushunari bo'lmagan holat va epizodlar, so'z va tushuncha, obrazlar miqdori ko'proq bo'lishi mumkin. Biz fikr-mulohazalarimizni "Alpomish" dostoni materiallari asosida bildirishga harakat qilamiz.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "**xalq og'zaki ijodining** noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oljanoblik, vafu va sadoqat kabi ezgu fazilatlar o'z ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mo'zoralarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi" [1, 32-33].

"Alpomish" dostonini o'rganishda folklorshunos olimlarimiz amalga oshirgan tadqiqotlarga tayanish doston mazmunini yoritishda katta yordam beradi. Shuningdek, metodist olimlarimiz Q.Yo'ldoshev [17] hamda O.Madayevlarning [21,] tadqiqotlari bevosita sharhlab o'rganishda ham juda qo'l keladi.

Ma'lumki, doston ona tilimiz boyliklarini favqulodda keng qamrov va nozik hassoslik bilan mujassamlashtirgan. Undagi ifodalarning sodda va tabiiyligi, aniq va ta'sirchanligi, jozibador va ravonligi, xalq dahosining qudratidan dalolat berib turadi. Alohida ta'kidlash joizki,

doston matnida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar u qadar ko'p emas. Ayniqsa, xalq donishmandligining go'zal ifodasi bo'lgan maqollar, xalqona iboralar, takrorlanmas tasvir vositalari, ayniqsa, iforli mubolag'a va o'xshatishlar, nodir epitetlar ko'plab qo'llangan. Ayni paytda dostonida xalqimizning qadimiy urf-odatlar, an'analari, rasm-rusumlari nihoyatda go'zal badiiy tasvirlarda taqdim etilgan. Hamma gap mana shu nodir va nozik tasvirlarni o'quvchilar diqqatiga yetkazishda, xolos. Bunda, nazarimizda, adabiyotdagi sharhlash imkoniyati juda qo'l keladi. Zero o'qituvchining tegishli sharhlarisiz, bir qarashda sodda va aniq bo'lib tuyilgan ko'plab holatlarning asl mohiyati ochilmay qolishi mumkin. Agar ularning mohiyati oydinlashsa, o'quvchilar har bir hodisaning badiiy-estetik mohiyatini to'g'ri va to'la idrok etsa, ulardan hosil bo'ladigan zavq ham shunchalik yuksak va ta'sirchan bo'ladi.

Adabiyot o'qitish metodikasida matnni sharhlab o'qitish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Shulardan biri M. Tursinovaning "Adabiyot darslarida sharhlash usuli" nomli maqolasidir. Maqolada usulning ta'lim jarayonidagi o'rni va roli, bu xil o'qitishning asosiy bosqich va tamoyillari xususida ahamiyatli fikrlar ilgari surilgan.

Metodist olim F. Badriev to'g'ri ko'rsatganiday, o'qituvchilarning darslarini kuzatish, o'quvchilar bilan qilingan suhbat shuni ko'rsatmoqdaki, asar tahlilida yozuvchi tomonidan qo'llangan ramziy ishoralar hamda so'zdan foydalanishdagi mahorati yetarli ochib berilmayapti. Ayniqsa, asarning badiiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar cheklangan holda bayon etiladi [9]. Sharhlab o'qitishdan foydalanish, nazarimizda, mana shu cheklanishlarga bir qadar barham beradi. Shulardan biri lingvistik sharhdir [63, 23]. Uning mohiyatini tushunilishi qiyin, ma'nosi notanish yoki noaniq bo'lgan so'zlarga izoh berish tashkil etadi.

Sharhning bu turi matnning mazmuniga qarab rang-barang bo'ladi. Zamonaviy matnlarda qo'llangan arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dialektizmlar shunday izohlarni talab etadi. Ayrim holatlarda esa, boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar mavjud bo'lishi mumkin. Bunda mazkur so'zning etimologik ma'nosi va tarixi haqida so'z boradi. Bunday hollarda ham ulara alohida izoh va sharhlar berishga to'g'ri keladi. Bunday sharh va izohlar so'zlarning kelib chiqishi – etimologiyasi haqidagi o'quvchilar tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Biz bu o'rinda ayrim nomlarni esga olishimiz mumkin.

Jumladan, otlarga qo'yilgan nomlar bu jihatdan xarakterlidir. G'irko'k, Do'nan, Boychibor... kabi ot nomlarining tasodifiy emasligini eslash kifoya. Ular otning rangi, yoshidan tashqari, qo'shimcha ma'nolarga ham ega. Jumladan, «G'irko'k» so'zi ikki qismdan iborat. Uning keyingi qismi rangni bildiradi, ammo birinchi qismi alohida sifatni anglatadi. Aslida u «Go'ro'g'li» so'zidagi «go'r» bilan ma'nodoshdir. «Go'r» faqat qabr ma'nosidan tashqari ham ko'p ma'nolarga ega. «G'ir», «kir», «kur» singari fonetik variantlarda uchraydigan bu so'zning qadimgi davrlar «olov», «kuch», «qudrat» singari ma'nalarni anglatgani yaxshi ma'lum.

Badiiy asar har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirgani bilan e'tiborlidir. Shuning uchun ham, ularda xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos tarzda aks etadi. Aslida badiiy adabiyot – milliy ongning ko'rinishi sifatida, shu xalqning milliy-ma'naviy fazilatlarini, o'ziga xosliklarini bevosita aks ettiradi. Ular urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari, shuningdek, milliy-ma'naviy qadriyatlar tarzida ko'rinishi mumkin. Shuning uchun ham, folklor asarlarini o'rganishda tarixiy-milliy sharhlarga katta ehtiyoj seziladi.

Dostonida shunday epizod bor: Tavkaoyim Alpomishni zindondan chiqarishga harakat qiladi. Buning evaziga esa, «arzimagan» bir shart ko'yadi: Alpomish unga uyulinishi kerak. Ammo bizning qahramonimiz bu shartga ko'nib quya qolmaydi. Nima uchun? Vaholanki, uning bundan keyingi taqdiri, hayoti, kerak bo'lsa, o'zi sodiq bo'lgan yor va yurt visoli ham shu harakatga bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqa bunday imkoniyatning paydo bo'lmaslik ehtimoli ham oz emas.

Demak, bunday holatda Alpomish tanlagan harakat izohlanishi, sharhlanishi lozim. Buning bir qator sabablari bor.

1. Xalq dostonlaridagi epik qahramon birovga tobe bo'lib qolmasligi kerak. U hamma narsaga o'z kuchi bilan erishishi shart.

2. Alpomish – mard va sadoqatli yigit. Mardlik va sodiqlik bilan xiyonat, vafosizlik o'zaro birlasha olmaydigan xislatlar. Shuning uchun ham, Alpomishning bunday shartlarga osongina ko'nib qo'ya qolishi folklor an'analariga ham, o'zbekona hayot mantig'iga ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

3. Alpomish o'z yurtidan safarga chiqqanida ikkita asosiy maqsadni ko'zda tutgan edi:

A) Barchinday yorini begona qo'llardan ozod qilish;

B) taqdirning taqozosi bilan bo'linib ketgan el-elatni qayta birlashtirish.

Shu niyatda borgan yigitning arzimagan bitta bahona bilan boshqa bir go'zalga oshiq bo'lishi yoki kamida, tasodifiy bir qizning taklifiga indamay rozi bo'lib ketishi mumkin bo'lmagan hol edi.

Alpomishning dostonida turli holatlarda ko'rinishi ham tegishli tarzda izohlanishi, sharhlanishi kerak. "Alohida ta'kidlash joizki, adabiyotdagi ayrim tushuncha, obraz va ramzlar bevosita diniy tasavvur va dunyoqarashlar bilan ham bog'lanib ketadi. Ularning asl mohiyatini bilmasdan turib, badiiy asardagi mazkur obraz va ramzlar mohiyatini ham anglash mumkin bo'lmay qoladi. Xuddi shunga ko'ra ham, adabiyot o'qituvchisi adabiy tahlilning shu nozik talablariga ham jiddiy tarzda javob berish uchun tayyorlanib borishi kerak bo'ladi".

Alpomishning zindonga tushish jarayonlarini eslaylik. "Alpomish"ning haqiqati shundaki, Hakimbek – favqulodda jismoniy kuch egasiga emas, balki g'ayb qudratidan quvvatlanadigan shaxs. Shu bois doston syujeti davomida u bir tekisda harakatlanmaydi. Qay bir o'rinlarda g'oyat qudratli, unga hech qanday to'siq yo'q, qay bir kezlarda esa, ojiz-u notavon. Bu tasvirdagi noizchilikdan emas, balki qahramon imkoniyatlarining har o'rinda har xil namoyon bo'lishida. Asar bosh qahramoni tabiatiga xos jihatlar yorqin inkishof etiladigan o'rinlarda, odatda, Alpomish g'ayb kuchlariga iltijo qiladi, ulardan yordam so'raydi. Ayonki, g'ayb kuchlariga odamning nolasi hamisha ham yetib boravermaydi yohud bu kuchlar doim ham yordam berishni lozim deb bilmaydi. Negaki, odam sinovlarda toblanadi, azoblar orqali poklanadi. Shuning uchun ham ilohiy kuchlar o'zlari suyg'an shaxslarga sinovlar orqali poklanish imkoniyatini berishadi. Ularni har qanday xas-u cho'pdan ham asrayverishmaydi. Alpomishning zindonda yeti yil indamay yotavermaganligi, necha bor Yaratganga yolvorganligi aniq. Lekin unga qutulish imkoniyati yetti yil to'lganda, shunda ham Boychibor vosita qilingach, berildi. Dostonda Alpomishning Allohga, payg'ambarga, pirlarga, chiltonlarga iltijosi va uning ijobati tasviri ham shundan dalolat [17, 104].

«Alpomish»ning darslikka kiritilgan matnida, jumladan, shunday

misralar uchraydi:

O'n ikki oy seni Boybo'ri boqdi,

Gardaningga Qalding'och qo'tos taqdi,

Yig'latmagin Barchin gulday bebaxtdi,

Qurr-u-yo, hayt-a, begimning oti!

Bu misralarda «Gardaningga Qalding'och qo'tos taqdi» ifodasi dabburustdan tushilishi qiyin. CHunki hozirgi paytda «qo'tos» so'zi hayrm turlaridan birini bildiradi, xolos. «O'zbek tilining izohli lug'ati» bu borada dastlabki ma'lumotni beradi: «Qo'tos. shv. Bo'yinga taqiladigan bezak buyumi...» [50, 417]. «Alpomish» dostonining izohli lug'ati»da uning ma'nosi «qo'tos yolidan yasalgan, otlarga maxsus taqiladigan bezak, taqinchoq» [25, 141] tarzida berilgan.

O'rni-o'rni bilan tarixiy-adabiy sharhlarga zarurat seziladi.

«Sharhli o'qish o'z maqsadiga ko'ra tarixiy, uslubiy, axloqiy-didaktik kabi turli xarakterda bo'lishi mumkin va u faqat matnini emas, balki matn zaminidagi yashirin fikrni ham o'qishga, asar yuzasidan fikr-mulohazalarni dalillashga ham o'rgatadi» [23, 10].

Badiiy asar voqealari, odatda, muayyan makon va zamonda bo'lib o'tadi. Shunga qaramay, bu makon va zamonlar har doim ham tushunarli, aniq, jug'rofiy xaritalarda aks etadigan, muayyan vaqt hisobi bilan to'la uyg'unlashadigan bo'lishi shart emas. Shuning uchun ham, adabiyotda «epik zamon» hamda «epik makon» atamaları mavjud. Hatto jug'rofiy atamalar aniq ko'rsatilgan, vaqt hisobi ham aniq olib boriladigan tasvirlarga ham duch kelish mumkin. Baribir, shunda ham adabiyotdagi epik zamon va epik makon qonuniyati o'z kuchini saqlab qolaveradi. Ayrim misollarga e'tibor qarataylik:

«Bir zamonda bir ovchi bor ekan» [52, 12].

«Bir bor ekan, bir yo'q ekan. O'tgan zamonda Buxoro shahrida bir zolim podshoh bo'lgan ekan» [52, 157].

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Qadim zamonda Sharq mamlakatlarining birida Kalla bozor mahallasida juda ham kelishgan, o'n besh yoshlardagi Karomatxon ismli qiz opalari bilan yashar ekan» [52, 5].

«Isfihon shahrida Bo'zo'g'lon degan podsho bor ekan» [47, 7].

«Burungi o'tkan zamonda, Urganch eldan tubanda, Chambilning belida, taka-yovmit elida Go'ro'g'libek gurlab, bek bo'lib, ovoza ko'tarib o'tdi» [46, 7].

1 Тухлиев Б. Адбийот санъат тури на ўқув предмети сифатида. – // Адбийот тилим на ёшлар тарбияси. – Тошкент, 2011.

Bunday hol yozma adabiyotda ham o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi:

Qildi chu Adham xalafi tarki joh,
Toji fano boshig'a quydi iloh [3, 118].
Hind mulkida bor edi shohe,
Shohlig' ishlaridin ogohe [4, 203].
Misrda xojae bor erdi, g'ani,
Eshigi hojat ahlining vatani [4, 203].
Eshittimki, bir toyiri nomabar,
Bitik zimnida sharhi hangomabar [5, 472].
Bor edi Kashmir navohisida tog',
Bog'i Eram rashkidin ko'ksida dog' [56, 273].
Xuddi shularga o'xshash «Alpomish» dostonida ham ko'plab joy nomlari uchraydi.

Yurt	Tog'	Cho'l	Daryo, ko'l	Tepa	G'or
Boysin- Qo'ng'iro't eli, Kashal, Qalmoq muzofot, Qo'qon,	Asqar tog'i, Bobo-xon tog'i, Bobir tog'i, Zil tog'i, Olatog', Shakaman tog'i, Qog'oton tog'i,	Badbaxt cho'l, Izg'or cho'l, Chilbir cho'l, O'rta cho'l,	Amudaryo, Arpali ko'li, Achchiko'l, Bobir ko'l, Oynako'l, Ko'kqamish,	Murod- tepa	Kashal g'ori

Garchi bu nomlarning ko'pi hozir ham joy nomlari sifatida qo'llansa-da, ularning aniq tarixiy joy sifatida emas, balki epik nom sifatida amal qilishi izohlanishi kerak. Shunga qaramay, bu joylarning har biri asarda muayyan voqe-hodislar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, Boysun-Qo'ng'iro't voqealarning boshlanishi bilan bog'liq. O'zbekning ikki urug'i shu erda yashaydi. Butun voqealarning rivoji mana shu epik makondan oziq oladi.

Asarning yetakchi qahramonlari Alpomish va Barchin shu yurtda tug'ilgan. Ularning ota-onalari, bobokolonlari shu erlik. Voqealarning Qo'ng'iro't elida Dobonbiy, Alpinbiylarning o'tganligini eslash bilan boshlanishi bejiz emas. Uzoq ajdodlarning eslanishi yurtda ahillik, hamjihatlik, osudalik, farovonlik bo'lganligini o'ziga xos badiiy

ifodasidir.

Asarning ishtirokchilari haqida ham alohida to'xtashga to'g'ri keladi. Gap shundaki, «Alpomish» - ko'pqatlamli asar. Shuning uchun ham, unda qahramonlar bir necha turkumlarga bo'linib ketadi. Ularning orasida ancha qadimgi davrlarga borib taqaladigan mifik qahramonlar va ularga bog'liq bo'lgan tasavvur va tushunchalar ham mavjud. Bir epizodga e'tibor beraylik.

Qalmoq alplarining kenjatoylaridan biri — Ko'kaman akasi Ko'kaldoshga «O'zbek qizini olib bergin, ko'rayin» deb murojaat qiladi. Shundan keyin «Alplarning har qaysisi ham ko'tarilib, «Senmi o'zbekning qizini oladigan», deb har qaysisi bir mushltab o'tayotir. Har alpnig mushti tekkanda, Ko'kamanning ustiga tog'ning cho'qqisi qulaganday bo'lib yotir. Alplar yana bir ko'tarilib bosildi. Ko'kaldosh alp turib aytdi: - Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas, yuringlar, to'qsonimiz ham borayik, o'zbekning qizini yo birimiz olayik, yo barimiz olayik».

Bugungi kunda bu ifoda ma'nosi biz uchun, ayniqsa, yoshlar uchun dabdurdan tushunarli emas. Qanday qilib bitta qizni yo bir kishiga, yoki barchaga berish mumkin? Bu savolga javob berish uchun, albatta, o'quvchilarning qadimiy tasavvur, e'tiqod va an'analardan xabardor bo'lishi shart. Folklorshunos olim O. Madaev bu haqda shunday yozadi: «Jamiyat tarixida «poligamiya»ga asoslangan oila tizimi bo'lgan. Poligamiya degani ko'p nikohlilik bo'lib, bir ayol va bir necha erkakning, yoki aksincha, bir erkak va bir necha ayolning bir oilada hayot kechirishidan iboratdir» [21, 15]. Yuqoridagi lavhalar mana shu qadimgi ijtimoiy holatning badiiy adabiyotdagi o'ziga xos ifodasi, xolos. Demak, shunday badiiy lavhalar ustida gap boradigan bo'lsa, o'quvchilarga tarixiy-etnografik mazmundagi izoh va sharhlarni berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asar qahramonlari haqidagi izohlarni ham shu siraga kiritish mumkin. Boybo'ri nomida turkiy xalqlarning qadimgi otemistik qarashlari bilan bog'liq bo'lgan unsur saqlanib qolgan. Qaldirg'och ham bu nonga tasodifan sazovor bo'lgan emas. U asarda ezuq xabarlarini yetkazuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos olimlarimiz ayrim poetik ramzlarni qush nomlari bilan aloqalanitirishadi. Bizda o'rdak, g'oz, kabutar, sa'va, bulbul singari qushlar shu vazifani ado etadi. Qaldirg'och ham shu siraga

kiradi. "Alpomish" dostonining o'zida Alpomishning xabarini g'oz yetkazgani qayd etilgan.

Necha vaqt, necha zamon orada o'tdi. Alpomish zindonda yotibdi. Qarasa, zindonning boshida bir g'oz qanotini yozib aylanib turibdi. G'ozni ko'rib, Alpomish bu so'zni aytib turibdi:

E jonivor, Qo'ng'iro't eldan keldingmi?
Humoyunday menga soya soldingmi?
Tor zindonda mendan xabar oldingmi?
Qarindoshdan elchi bo'lib keldingmi?...

Shunda g'ozni ushlab ko'rdi. G'ozning bir oyo'i singan, bir qanoti mayib bo'lgan, o'q tegib, holati ketib, shu yerga yiqilgan. Hakimbek turib aytdi: "O'z elimda, Bobir ko'linda yurgan vaqtlarimda shu g'oz menga yo'liqsa, butun yo'liqar edi. Hozir zindonda yarim odamman-da, bu g'oz menga yarim yo'liqdi».

Necha kunlar g'oz bilan suhbat qurib yotdi, g'ozning yaralari bitdi. Parvoz qilib, ko'tarilib uchadigan bo'ldi. Hakimbek: - Elu xalqimga mening o'lik-tirik xabarimni sen yetkazsang, - deb xat qilib, g'oz qanotining shopariga muxtasar qilib, g'ozga qarab, bir so'zni tayinlab turgan ekan:

Belimga bog'lagan zarrin po'tam bor,
Xudoyim kechiray qilgan xatom bor,
Qo'ng'iro't elida Boybo'riday otam bor,
Albatta, otama arzimni yetkar.
Men yig'layman, yuragimda alam bor,
Vayron bo'lgan elda kulbaxonam bor,
Qo'ng'iro't elda oq sut bergan enam bor,
Albatta, enama arzimni yetkar.
Men edim necha vaqt elda dubulboz,
Tul bo'p qoldi Barchinoyday sarvinoz
Arzamni yorima yetkaz, yolg'iz g'oz,
Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh,
Zolim bilan hargiz bo'lmanglar yo'ldosh,
Bir singlim bor, mening bilan emikdosh,
Bobir ko'ldi hala deydi, yig'laydi,
Singima arzimni yetkar, yolg'iz g'oz...

Mana bu yerda ham badiiy variatsiyaning yana bir o'ziga xos turi bilan ro'para kelinadi. Asosiy maqsad Alpomishning qalbidagi dard va sog'inchni ko'rsatib berishga qaratilgan. U xatni yetkazib

beruvchi g'ozga murojaat tarzida shakllangan. Iltijoning asosiy mohiyati arzni yetkazishdan iborat.

Biz bu yerda arza — iltijoning dastlabki qismini keltirdik, xolos. Keyingi qismlarda murojaatning Yodgorga, Qorajonga, teng-tushlariga, Boysinga yo'naltirilgan shakllari ham mavjud.

Ushbu badiiy variatsiya o'ziga xos badiiy-estetik vazifalarni ado etishi bilan xarakterlidir. Dastlab, u Alpomish ichki olamini tinglovchi (kitobxon)ga yanada to'laroq va ta'sirlaroq yetkazish vazifasini ado etadi.

Alpomish madadga muhtoj bo'lgan barcha farzandlar, ayniqsa, o'g'il farzandlar qatorida dastlab otasini esga oladi. Buning ustiga uning o'z otasiga juda ayricha munosabati ham namoyon bo'lgan. "Boybo'riday otam bor" iborasida faqat madadga tayanishi uchun asosgina emas, balki shunday otasi borligidan faxr va iftixor tuyg'ulari ham mujassamlashgandir.

She'riy misralar Alpomish ichki iztiroblarining juda yorqin ifodasi sifatida ko'zga tashlanadi. Galdagi eslov "oq sut bergan enam bor" tarzida ko'zga tashlanadi. O'zbek uchun ota-onadan ulug' zot yo'q. Shuning uchun ham, murojaatning ular nomi bilan boshlanishi bejiz emas. Shundan keyingina "Barchin sarvinov" va emikdosh singil tilga olinadi.

Galdagi ro'yxatga Yodgor, keyin Qorajon qo'shiladi. Ikkinchidan, bu narsa baxshining ijro mahoratini belgilashga ham imkon beradi. Bunday holatlarda baxshining fantaziyasi, assosiativiyalar olami juda yorqin tarzda ko'rinadi. Uning qahramonga bo'lgan munosabati, qahramonni tinglovchilar auditoriyasiga yanada yangi qirralari bilan tavsif etish imkoniyati juda yorqin namoyon bo'ladi.

Baxshi qahramonning o'ziga so'z beradi. Uning o'z og'zidan chiqayotgan so'zlari tinglovchiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. U qahramon (Alpomish)ning o'zgalarga munosabatini shu tarzda ko'rsatib beradi.

Badiiy variatsiyaning yana bir o'ziga xos shakli quyidagi parchada namoyon bo'ladi:

1. Men yig'layman yaratganga zori-zor,
Ne qilsa, hukmi bor qudratli jabbor,
To'yxonaga otang kelgandir Yodgor.
2. Suvda bo'lar suluv o'tning suyrug'i,

Biz bilan bo'larmi haqning buyrug'i,
Cho'ltanglab ko'rindi Chibor quyrug'i.

3. G'amli bo'lmay oh-u fig'on etmaydi,
Yobi ot tuyoqdan otgan tuprog'i
Sira ham bir chatanidan o'tmaydi.
Bog'onada bir Chibor ot kep edi,
Uy girdidan, bolam, to'zang ketmaydi.
4. To'yxonaga, bolam, otang kelgandi(r),
Kim yaxshi, kim yomon, anglab bilgandi(r),
Inshoollo, ko'rarmiz shunday polvondi.
5. Mard yigit maydonga kirsja jellidir,
To'qayda yo'lbarsning izi bellidir.
Otang yo'lbars, to'yxonada yurgandir,
Kim yaxshi, kim yomon, anglab bilgandir,
Do'st-u dushmanlarni sinab ko'rgandir,
Otang shuytib bildirmayin yurgandir,
Kashal yurtga ketgan otang kelgandir.
6. Xazon bo'lsa bog'da gullar so'lgandir,
Bu o'chgan chirog'im yonib qolgandir,
Men biluvda dushman qullar o'lgandir,
Bolam, elga qaysar otang kelgandir,
Otang kelib oti munda yurgandir,
Hozir o'zin bildirmayin turgandir.
7. Kepti Qalmoq eldan sog'-u salomat,
Bilmaganlar qilar edi malomat,
Dushman ko'rsa endi solar qiyomat,
Bek otang kelibdi sog'-u salomat. (372-373)

Bu Barchinning o'g'li Yodgorga aytayotgan so'zlari. Matndagi asosiy maqsad Barchinning o'z o'g'liga Alpomishning kelgani haqidagi ko'ngil sezimlarini yetkazishdan iborat. Biz matnni shartli ravishda yetti qismga ajratdik. Dastlabki bayt Barchinning taxminini ifodalashga qaratilgan. Aslida butun matnning o'zi ham manna shu ichki sezim ifodasidan iboratdir. Faqat u har bir bandda alohida-alohida shakllarda aks etgan. Unda Barchinning mushtipar bir holati, ayni paytda taqdirga tag'yir yo'qligining o'ziga xos tarzdgai e'tirofi mujassamlashgan. Ammo qudratli jabborning ne qilsa ham, qilishga hukmi borligi umidsiz holatning asosigina emas, balki xudo qudratining cheksizligi tufayli taqdirni yaxshi o'zanlarga burish

ixtiyori va imkoniga ham egaligini ishonch va e'tiqodning ifodasi hamdir.

Ikkinchi bandda ham shu taxmin izhor etilmoqda. Ammo endi unda dastlabki asos, dalil paydo bo'lgan. Bu Boychibor quyrug'ining ko'zga ko'rinish ketganligidir.

Keyingi band yangi asosi bilan odigngi fikrni to'ldiradi, boyitadi. Oddiy va asl ot haqidagi mulohazalar bu banddagi yangi fikr sifatida ko'zga tashlanadi.

To'rtinchi bandda Alpomishning kelib qolishiga oid taxmin ancha dadilroq tarzda aytiladi. Endi Alpomishning kelib odamlarni o'rganayotganligiga ishora qilinadi.

Beshinchi bandda Alpomishning to'yxonada o'zini bildirmay turishi, uning sababi esa, kim yaxshi va kim yomon ekanligini bilib olish maqsadi bilan bog'lanadi. Muhimi, taxmin endi aniq xabar darajasiga ko'tarila boshlaydi.

Otang kelib oti munda yurgandir,

Hozir o'zin bildirmayin turgandir — tarzdgai ifoda taxminning ancha yuqori bosqichini ko'rsatadi. Bularning barchasi Barchin ko'nglidagi taxminlarning asosi ancha baquvvatligini, shuning uchun ham, uning «Bek otang kelibdi sog'-u salomat» deya hukm chiqarishga barcha asoslari borligini ko'rsatib turadi.

Alohida ta'kidlash joizki, fikr oqimining bu tarzdgai zanjirli ko'rinishi kishida o'zgacha zavq uyg'otadi. Bir fikr ifodasidagi so'zlarning takrorlanmasligi, aksincha, uning yangi-yangi shakllar orqali ko'rsatib berilishi kitobxonning qiziqishini o'rnatiradi, unda badiiy so'z tufayli hosil bo'ladigan huzurning bardavom va ohorli bo'lishini ta'minlaydi.

“Alpomish” dostonining matnini sharhlashda o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlar, rasm-rusum, qurol-aslaha, mahalliy ash'yolar, xususan, ovchilik, chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan so'zlarga e'tibor berish zarur bo'ladi. Ularning kattagina qismi, ayniqsa, shahar sharoitida yashayotgan yoshlarimiz uchun mutlaqo notanish bo'lib qolganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Faqat ot abzallari nomlarining o'ziga fikrimizni tasdiqlashi mumkin:

Qalldig'ochoyim akasiga bu so'zlarni aytib, otni egarlab berayin, deb turgan yeri:

Osha elga oshgan tortar xo'rlikni,

Bek Alpomish qilar bugun erlikni,

Bismillo, deb soldi otning ustiga
Kimxobi mayindan bo'lgan terlikni.

Mard bo'lganlar qaraydakan durbini,
Ustalar ishlata po'lat qirg'ini,
Shul zamonda soldi otning ustiga
Zarliyu zarbobdan bo'lgan chirgini.

Chirgining ustidan qo'ydi bellikni,
Boz ustidan soldi jahaldirikni,

Mullalar o'qiydi zeru zabarni,
Ustalar chopadi tesha-tabarni,
Bismillo, deb soldi otning ustiga
Tilla korson, qoshi oltin egarni.

El ko'chirib Olatovdan oshirdi,
Sirin aytmay dushmanlardan yashirdi,
Ikkovi ham tilladandir uzangi,
Yarqillatib ikki yoqqa tushurdi.

Muhtaram o'qituvchilarimiz bu matndagi izohtalab so'zlar ma'nosini "Alpomish" dostoni uchun tuzilgan maxsus lug'atdan foydalanilgan holda izohlashlari mumkin bo'ladi. Quyida ularning ayrim namunalarini keltiramiz:

bellik — otning belini egar o'rmas (yag'ir qilmas)ligi uchun bel cho'qisining ikki yonboshiga qo'yiladigan mato

Jahaldirik — ot anjomi, egardan oldin ot ustiga yopiladigan yopinchiq

terlik — otning yalang'och badaniga tashlanadigan yopinchiq, to'shama

chirgi — terlikdan keyin ot ustiga tashlanadigan yopinchiq

qirg'i — qirg'i, qirg'ich, yog'ochni qirishga mo'ljallangan moslama

Dostonda o'zbek xalqining to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar keng aks etgan. Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" bo'lib, o'lganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunga ham bir nima berib, har zamon salom solib,

uydan ichkari kirib, chimildiqda o'tirib, oldiga dastarxon solib, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib, ularning oldiga qo'yib, xo'b eb to'yib, kuyov navkarlarga do'ppi, ro'mol, sarpalar berib, hammasini o'z rasmi-qa'dasini qilib, kuyov navkarlar chiqib ketdi, bular ham mazgiliga — joy-joyiga qarab ketdi. Barchinni bekning qoshiga op kelmogchi bo'lib, ko'p kishilar o'rtaga olib, baxmal qoplagan oq kigizga solib, «qadimgi rasmimizni qilamiz», — deb qizlar ko'tarib, ko'targani quvvati kelmay halak bo'lib, uytiib-buytib olib kelib, Hakimbekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, "soch siypatar", "qo'l ushlata"rni qilib,.... har qaysisi o'z mazgiligi ketdi. (209). Bu urf-odat va udumlar hozir ham xalq orasida saqlanib qolgan. Ularga beriladigan izohlar o'quvchilar tomonidan o'rganilishi muhim ahamiyatga ega.

Dostonda ko'plab jo'g'rofiy nomlar ham bor. Ularning ayrimlari hozir ham mavjud. Ularning ayrimlarini kuzataylik: Qo'ng'iro't — Respublikamizga ko'p uchraydigan joy nomlaridan biri. U Andijon viloyatida, Buxoro viloyatining Vobkent tumanida, Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqurg'on, Payariq, Xatirchi tumanlarida, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida, Xorazm viloyatining Urganch, Yangiariq tumanlaridagi qishloqlar, Qoraqalpog'istonning bita tumani nomi sifatida keng tarqalgan. Shuningdek, Yomonqo'ng'iro't, Qoraqo'ng'iro't, Qo'ng'iro'tovul tarzidagi joy nomlari ham mavjud [54, 185]. Bobotog'-Termiz shahrining shimoliy qismida joylashgan qishloq. Boysun — Surxondaryo viloyatidagi tumanlardan biri. Hashtarxon — Astraxan. Qalmoq eliga aloqador joy nomlari quyidagilar: Qalmoqxon — Shofirkon tumaniga qarashli qishloq. Qalmoqlar — Oxunboboev tumanidagi qishloq. Qalmoq — Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi, Farg'ona viloyati Quva tumanidagi, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi qishloqlardan birining nomi sifatida saqlanib qolgan. Buxoroning Shofirkon tumanida esa, Qalmoqon degan qishloq, Toshkent viloyatida Qalmoqqir degan joy nomi saqlangan.

Asar qahramonlaridan biri — Boybo'ri nomi bilan ataladigan qishloq ham bor. U Sariosiyo tumanidadir.

Dostonda Chilbir cho'li, Oyna ko'li, Bobir ko'li, Toychi viloyati, Asqar tog'i kabi ayrim tog', ko'l, viloyat nomlari faqat epik makon sifatida tilga olingan.

«Tarixiy — memuar, ayrim hollarda zamonaviy mavzudagi asarlar mazmunini o'zlashtirish sharhli o'qishni taqozo etadi.

Sharhli o'qish lug'at ustida ishlashni anglatmaydi, balki asardagi obrazli ifodalar, maqol va matallar mazmunini sharhlash, tarixiy-afsonaviy, xayoliy-fantastik timsollar haqida ma'lumotlar berish, izohlash kabi murakkab masalalarni qamrab oladi» [23, 8].

Ot chopsa, gumbirlar tog'ning darasi,

Urishta bilinar mardning sarasi.

Sozandalar sozin chertar qo'l bilan,

Yomon odam kuydiradi til bilan.

Kuchuk bosmas yo'lbars — sherning izini,

Esi bor biladi gapning tuzini.

«Kuchuk bosmas yo'lbars-sherning izini» (135-bet).

Bu maqol Alpomishning sha'niga aytilgan bo'lib, uni to'qson alp bilan qiyoslash ma'nosi anglatadi. Bu yerda kuchuk kuchsiz, ojiz, yo'lbars-sher esa, kuchli, qudratli degan ma'nolarni anglatadi. Alpomishning kuch-qudrati, unga nisbatan xalq mehrining cheksiz-chegarasiz holati mana shu qiyosga asos bo'lgan.

“O'zingdan chiqqan baloga, qayga borarsan davoga” (279-bet)

Bu maqol Qalmoqshohning tilidan aytilgan. Surxayil kampir Qalmoqshohning qizini Alpomish bilan munosabatga kirishayotganini aytgan paytda shu maqol qo'llangan. Qolaversa, qiz bolaning nomi bilan bog'liq bo'lgan sha'n, or-nomus, hayo, andisha mana shu maqolning qo'llanishi bilan bog'liq holda kun tartibiga qo'yilgan.

Doston mubolag'alari ham o'quvchilar uchun manzur bo'ladi.

Kashalik polvonlarning biri Qo'shquloq haqida shunday misralar bitilgan:

Shumurti shoxalab har yoqqa ketgan,

Uchida chichqonlar bolalab yetgan,

Izdan tushgan pishak oltoyd yegan. (159)

Mana bu misralar esa, boshqa bir qalmoq pahlavoni haqidadir:

Oltmish qari olachadan qalpog'i,

To'qson qo'yning terisidan telpagi. (160)

Dushman tomonining bunday vahimali va haybatli tasvirlari bejiz emas. Ular qanchalik kuchli, vahshatli va vahimali bo'lsa, asl qahramonning imkonlari ham shunchalik ulug'vor ko'rinadi. Bu tasvirlarning barchasi Qorajonning dushmanini engishdagi o'ziga

xos qiyofasini tasavvur qilishga imkon beradi.

Qamchi tordii Qorajonday zo'rabor,

Yashinday bo'p ko'tarildi Boychibor.

Balki bulut bilan bo'ldi barobar,

Ko'zin ochib qarar Qorajon nomdor,

Yashinday bo'p obketibdi Boychibor.

Bu poyga jarayonida Boychiborga azob berib, boylab tashlangandan keyin, yo'lga tushgan holatidagi tasvirdir. Unda Boychiborning shiddati, kuchi, yashinday o'xshatishi orqali namoyon qilingan. Bu ayni paytda mubolag'ali tasvir hamdir. U o'quvchi diqqatini o'ziga tortishi, uning hayratini oshirishi bilan e'tiborlidir.

Dostonning badiiyati bilan bog'liq bo'lgan munosib sharh va izohlar ham ayriча ahamiyat kasb etadi. Doston poetikasida badiiy variatsiyalarning o'rni va ahamiyati ham o'ziga xosdir. Uning dostonning turli qismlarida turli maqsadlar bilan qo'llanganini ko'rish mumkin. Bu baxshilarning mahorati bilan bog'liq. Odatda, doston ijrochilari baxshi shoir, jirov, jirchi, yuzboshi, sannovchi degan nomlar bilan yuritilgan¹. Biz ayrim badiiy variatsiya namunalari keltiraylik:

1. Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh,

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh,

Barchinoyim bo'y yetgandir qalamqosh,

Zolim bilan hargiz bo'lmanglar yo'ldosh,

Qo'ng'irotd eldan molga zakot kelibdi,

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!

2. Qursin, Hakimbegi mulla bo'libdi,

Bezaket mollarni harom bilibdi,

Qo'ng'irotd eldan molga zakot kelibdi,

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh.

3. Dardli qul dardimni kimga yoraman,

Ayrolig o'tiga bag'ri poraman,

Muna elda sig'indi bo'p turaman,

O'z akamga qanday zakot beraman?!

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!

¹ Мирзавев Т. Узбекские народные дастаны и героический эпос «Алпамыш». - // Алпамыш. Узбек халк ахборотилик эпоси, Тошкент, Фан, 1999, с.10.

4. Xazon bo'lib bog'da gullar so'libdi,
Shum falak boshima savdo solibdi,
Boybo'ridan molga zakot kelibdi,
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
5. Xudo deyin, yaratganga jilayin,
O'z akama qanday zakot berayin,
O'z akama o'zim zakot berguncha,
Boshqa yurtida juz'ya berib yurayin.
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
Boybo'ridan bizga mahram kelibdi,
Zakot debdi, bir bidahat qilibdi.
6. Muna elda men ham bekman, to'raman,
Har na qismat yozilgandan bilaman,
Azaliy taqdirga nima ish qilaman,
O'z akama qanday zakot beraman?!
O'z akama o'zim zakot berguncha,
Qalmoq borib juz'ya berib yuraman.
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
7. Xudo deyik, yaratganga jilayik,
Yaratgan rahmondan maqsad tilayik,
Omin desa farishtayu maloyik,
Katta-kichik, turgan endi haloyiq,
O'z akama qanday zakot berayik.
8. Sen eshitgin Boysarining tilini,
Akam bizga minnat qildi ulini,
Sabil qilib ketay Boysin elini,
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
9. Jafu tig'i bugun jondan o'tadi,
Boybo'ring so'zi bizni o'rtadi,
Zakotchilar jabr ko'rib ketadi,
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
10. Zakot degan bir shumlikni qilibdi,
Boybo'ridan o'n to'rt mahram kelibdi,
Zakot degan gapni ma'lum qilibdi.
11. Ustima kiyganim yashil-ko'k edi,
Bunday so'zlar ilgari yo'q edi,
Boybo'ridan bunday so'zlar kep edi,
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!
Zakot degan bul ellarda yo'q edi.

Agar mazkur parchani shartli ravishda kichik mavzuchalarga bo'ladigan bo'lsak, taxminan, quyidagi manzara hosil bo'ladi?

1. Maslahat.
2. Zakot.
3. Boysarining hamiyati.

Mazkur vaziyat paydo bo'lganidan keyin Boysari o'z urug'doshlariga qarab murojaat etadi. Tabiiyki, «Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh» degan murojaat mazkur parchaning asosiy mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Biz parchani shartli ravishda 11ta qismga ajratamiz. Ularning barchasida mana shu maslahatga muhtojlik ruhi hukmron. Ammo ularning ifoda tarzi va ichki ma'no tovlanishlarida ancha jiddiy ayirmalar ko'zga tashlanadi. Uni, dastlab, quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Yuz bergan hodisa haqidagi dastlabki axborot.
2. Hodisaning yuz berishiga oid sabab izohi.

3-4. Hodisa natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatga baho.

5. Mazkur hodisani bartaraf etish uchun qilinayotgan taklif.

6. Taklif mazmunining aniqlashtirilishi.

7. Urug'doshlarga (taklif mazmunini singdirish maqsadidagi) murojaat.

8-9. Taklif mazmunini asoslashning yangi bir darajasi.

10. Hodisaga nisbatan munosabat.

11. Taklifga munosabat bildirish uchun undov.

Boysarining nuqtidagi asosiy nuqtalardan biri o'z urug'doshlariga yuz bergan hodisaning mohiyatini yetkazib berishdir. U zakot haqidagi axborotdan iborat. Axborot «Qo'ng'irotdan eldan molga zakot kelibdi» tarzida aks etgan. E'tibor berilsa, butun parchaning hammasi mana shu axborot ustiga qurilganligini his etish qiyin emas. Ikkinchi parcha zakot hodisasi qayerdan paydo bo'ldi? — degan savolga javob tariqasida shakllangan. Bu urug'doshlar tilida aytilish ehtimol tutilgan savol edi. Xakimbekning «kitobxon» bo'lganligi (parchada «mulla» so'zi kesatiq bilan aytilayotganini nazardan qochirmaylik!), shu kitoblardan birini ko'rish jarayonida zakot tushunchasining mohiyatini izhlashi natijasida paydo bo'lganligi eslatiladi.

Keyingi bandda zakotning shaxs — Boyso'ri ruhiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri, uning jamiyat orasida tutgan mavqeiga ta'siri nuqtai nazaridan baholanmoqda.

Beshinchi banddashi ifoda ham shu mavzuni davom ettiradi. El-yurt oldidagi bu nomunosib baho (ya'ni obro'sizlanish) uning o'z yurtida qolishi uchun monelik qiladi. Shuuning uchun ham, «o'zga yurtida juz'ya berib» yurishni ma'qul ko'radi.

Otinchi banda yana zakot berib yurishning uning sha'niga nomunosibligi uqtiliradi. Bu uqtilirish endi ancha keskin va ochiq ko'rinish («Muna elda men ham bekman, to'raman») oladi. Ettinchi bandda «ijtimoiy fikr hosil qilish» ancha ochiq tarzda ifodalanadi. Faqat bu erda tinglovchi — urug'doshlarning hamkor va hammasligiga urg'u beriladi (O'z akamga qanday zakot berayik).

Sakkizinchi bandda urug'lari hali ham anglamay qolishi ehtimol tutilayotgan boshqa, ammo ancha jiddiy haqiqat — Boybo'ringning o'z o'g'ildorligini pesh qilayotganligiga e'tibor tortiladi. Keyingi band esa mana shu mavzu — motivni yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqishi bilan (Jaf o' tig'i bugun jondan o'tadi, Boybo'ringning so'zi bizni o'rtadi) karakterlanadi.

O'ninchi va o'n birinchi bandlarda Boybo'ringning taklifi uchun asos bo'lgan hodisaga e'tibori tortiladi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, doston ijrochisi — Fozil Yo'ldosh o'g'li ayni fikrni ifodalash uchun xilma-xil shakllardan juda ustalik bilan foydalangan. Doston jozibadorligining ortishida bir fikrni turli yo'sinda ifodalash — badiiy variatsiya mutlaqo o'ziga xos vazifalarni ado etgan.

Bularning barchasi «Alpomish»dagi har bir badiiy unsur haqida izchil va jiddiy mulohaza yuritishning naqadar zarur ekanligini ko'rsatib turibdi. Zero, «Alpomish» nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma'naviy merosidir. Badiiyat va epik tafakkur qonuniyatlaridan boxabar inson borki, bu asarning dunyo tamadduni hamda inson tassavuri va tafakkuridagi noyob badiiy-estetik hodisa ekanligini tan oladi" [34].

Ana shunday muhtasham va serjilo asarga xos xususiyatlarning yoshlarimiz ongiga singdirish esa, ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalarimizdan bo'lib qolaveradi.

«Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa, inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta" (59). Muhtaram Prezidentimizning bu mulohazalari badiiy adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini juda yorqin ko'rsatib berishi bilan e'tiborlidir. Biz ana shunday qudratli va buyuk vositadan juda samarali foydalanishimiz lozim. Nazarimizda, adabiy matnlarni sharhlab o'rganish ham bu yo'ldagi ancha jiddiy va samarali usullardan bo'la oladi.

Yoshlarimiz ongiga san'at asarlarining, adabiyot namunalarining o'ziga xosligini, ularda mujassamlashgan yuksak insoniy fazilatlar tarannumi, xalqona an'analar, milliy qadriyatlar talqini va targ'ibini yetkazish ularning yuksak ma'naviyat egalari bo'lishida, go'zallikni qadrlashi, ardoqlashi va unga intilishlarida, olam va odamga xos bo'lgan barcha narsalarni qadrab, ularni asrab-avaylashlarida muhim omil bo'lishiga shubha yo'q.

Sharhlab o'qishning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Shunga qaramay, hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng samarali bo'lgan mana shu usulning birozgina e'tibordan chetda qolayotgani ham sir emas.

Biz ushbu qo'llanmada mana shu boradagi ayrim mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashdik. O'ylaymizki, bizning bu kuzatishlarimiz til va adabiyot o'qituvchilariga, ayniqsa, endigina ish boshlagan yosh mutaxassislarga yordam beradi.

Sharhli o'qishning afzalligi shundaki, unda matn «yoppasiga» tahlilga tortiladi. Undagi mavjud badiiy unsurlarning barchasi e'tiborda bo'ladi. Bunday holatda faqat ayrim so'zlarning o'ziga emas, balki matn osti ma'nolarini izlash, ilg'ash va idrok etish uchun ham keng imkoniyatlar ochiladi.

Sharh bir qarashda engil va osonday tuyulsa-da, uni amalga oshirish anchayin murakkab. Bu ish bilan shug'ullanish katta va jiddiy tayyorgarliklarni talab etadi. Ayniqsa, mavzuga oid bo'lgan badiiy, ilmiy, tarixiy, etnografik, kerak bo'lsa, jug'rofiy, pedagogik, psixologik bilim va manbalardan yaxshi xabardorlik taqozo etiladi.

Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, adabiyot o'qituvchisi muntazam izlanishi, ko'plab qo'shimcha manba va materiallarning ichida yashashi kerak bo'ladi.

Birgina Alisher Navoiyning hayoti va ijodini olib ko'raylik. Muhtaram Prezidentimiz aytganlariday: "Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz" (20)

Ammo bu niyat o'z-o'zicha amalga oshib qolmaydi. Buning uchun o'qituvchilarimiz Navoiy asarlarining o'zini ham, ularga oid bo'lgan ilmiy-tadqiqotlarni ham uzluksiz ravishda kuzatib, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lgan holda, o'z ish faoliyatlarini davomida foydalanishning yo'l-yo'riqlarini ham belgilab olishlari lozim.

Ba'zan bir so'zning ma'nosini izohlashda lug'at va qomuslarimiz ham yordam bera olmay qoladi. Shunda qo'shimcha manbalarga, tarixda yashab o'tgan ijodkorlarmizning davri bilan aloqador bo'lgan hodisalarga mohiyatini yoritishga imkon beradigan manba va materiallarga murojaat etish taqazo etiladi.

Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz namunalarini o'rganishda sharhlab o'qishning ahamiyati juda ortadi. Biz buni hadisi shariflar, Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, Gulxaniyning "Zarbulmasal"ini o'rganish misolida ko'rsatishga harakat qildik.

"Alpomish" dostoni ham o'quvchilarimizning ma'naviy olamini, ulardagi badiiy-estetik didni shakllantirish va kengaytirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Bu asar o'quvchilarning axloqiy-ma'naviy fazilatlarini milliy an'ana va qadriyatlar asosida shakllanishida muhim omil bo'la oladi. Agar folklorshunos olimlarimizning "tarix sahnasida ilk bor vujudga kelayotgan har bir etnos o'zining epik darakchisi bo'lmish qahramonlik eposi bilan bo'y ko'rsatadi",- degan xulosalariga tayanadigan bo'lsak, "Alpomish" dostonida ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan ko'plab urf-odatlar, rasm-rusmlar, o'zbekona tutum va xislatlarning aks etganini kuzatishimiz mumkin. Ayni

paytda, ularning barchasi ham bugungi avlodga, ayniqsa, yoshlarga, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining, akademik liseylar va kasb-hunar kollejarining o'quvchilariga birdek tushunarli emas. Ularda ko'plab nuqtalar borki, ular, albatta, sharhlanishi, izohlanishi kerak bo'ladi. Busiz ularning mohiyati ochildmaydi, ular qorong'i va mavhumligicha qolib ketadi.

Sharhlab o'qishda o'quvchilarning darsga, adabiyotga, badiiy so'zga bo'lgan qiziqishlarining behad ortishini ham ta'kidlash joiz. Natijada, o'quvchilar so'z san'ati namunalarini milliy-ma'naviy boylik va qadriyat sifatida baholashni o'rganadi. Ular badiiy-estetik hodisalarga nisbatan ongli va asosli munosabat bildira boshlaydi. Demak, u dars samaradorligining o'rtishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sharhlab o'qish natijasida o'quvchilar badiiy asar zamiridagi yuksak badiiy-estetik mazmunni anglash imkoniga ega bo'ladi, bu esa, o'z-o'zidan ularning ongli kitobxon bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi, ularning qalbida yangi va yaxshi asarlarni o'qishlari uchun havas uyg'otadi.

Sharhlab o'qish badiiy asarlar matni mazmuni, ularning yozilish tarixi, mazkur asarning yozuvchi ijodida yoki adabiyot tarixida tutgan o'rni va ahamiyatini tasavvur etishda qulay imkoniyat yaratadi. Yaxlit holda shu asarda mujassamlashgan barcha badiiy unsurlarning o'rni va ahamiyatini yorqinroq tasavvur etishga yo'l ochadi. Buning natijasida mavzular uzviyligi, predmetlararo aloqalar yo'liga qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar rўyxati

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2009.
2. Алимов У. IX — XI асрларда Самарқандда калом илмининг ривожланиши. — Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, «Мовароуннахр» нашриёти, 2007, 40-42-бетлар.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Еттинчи том. Ҳайрат ул-аброр. — Тошкент, Фан, 1991, 118-бет.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Унинчи том. Сабъий сайёр. — Тошкент, Фан, 1992, 141-бет.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ён биринчи том. Садди Искандарий. — Тошкент, Фан, 1993, 472-бет.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ён тўртинчи том. Маҳбуб ул-қулб. — Тошкент, Фан, 1991, 47-бет.
7. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр (Яхшилар ҳайрати). Насрий баён қилувчи А.Ҳайитметов. — Тошкент, Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 59-бет.
8. Ахлоқ-одоғга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Хикматуллаев, А.Мансуров. — Тошкент, Фан, 1990.
9. Бадриев Ф., Худойбердиев А. Адабиёт — қадриятлар фалсафаси. — // Оғзаки ва ёзма нутқ муаммолари — Тошкент, 2010.
10. Богомолова Л.К. Комментированное чтение первых глав романа А.С. Пушкина «Евгений Онегин» // В сб.: Ученые записки Ленинградского гос. пединститута им. А.М. Герцена. — Л., 1957.
11. Гиллельсон М.И., Мушина И.Б. Повесть А.С.Пушкина «Капитанская дочка». Комментарий. — Л.: Просвещение, 1977.
12. Гулханӣ. Зарбулмасал ва ғазаллар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Ўкубов. — Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1960, 23-бет.
13. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси, Тошкент, Ўқитувчи, 1967.
14. Зуннунов ва б. Адабиёт ўқитиш методикаси. — Тошкент, Ўқитувчи, 1992.
15. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро, 2000.
16. Илеева Л.Ф. Педагогическая интерпретация литературного произведения в общеобразовательных учреждениях киргизской республики: Автореф. дис.... канд. пед. наук. — М., 2005.
17. Йўлдошев Қ. «Алпомиш» талқинлари ёки дoston бадияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар. — Тошкент, Маънавият, 2002.
18. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. — Тошкент, Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти ҳамда «Ўзбекистон» нашриётлари, 1999.
19. Костава М.Т. Филологический комментарий художественной прозы как средство развития устной речи учащихся 8 — 9 кл. Национальной школы: Автореф. дис.... канд. пед. наук. — М., 1989.
20. Қошғарий Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғот ит-турк), Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов, уч томлик, 1-том, Тошкент, Фан, 1960.
21. Мадаев О. «Алпомиш» билан суҳбат. — Тошкент, Маънавият, 1999.
22. Мамадалиев С. Имом Бухорий таърифи. — Тошкент, Чўлпон, 1996.
23. Матчинов С. Бадиий асар матни устида ишлаш. — // Тил ва адабиёт таълими, 2002, № 2.
24. Мирзаев Т. Узбекские народные дастаны и героический эпос «Алпамыш». — // Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси, Тошкент, Фан, 1999.
25. Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг луғати, — Тошкент, «Elmus-Press-media», 2007.
26. Мирқосимова М. Адабиёт дарсларида ёзувчи маҳоратини ўрганиш — // Адабий таълим ва ёшлар тарбияси. — Тошкент, 2011.
27. Мурьянов М.Ф. Вопросы интерпретации антологической лирики (стихотворение Пушкина «В крови горит огонь желанья»). — // Анализ литературного произведения. — М.: Наука, 1976.
28. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Имон. — Тошкент, Камалак, 1992.

29. Навоий асарлари лугати, Тузувчилар: П.Шамсиев, С. Иброҳимов, Тошкент, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
30. Низовская И.А. Комментирование // Буйских Т.М., Задорожная Н.П., Низовская И.А. Как следовать принципу академической честности: Учебное пособие для студентов. — Бишкек: ОФЦИР, 2004. — С. 48 — 75.
31. Русча-ўзбекча лугат. Икки жилдди, ж.1. Тошкент, Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1983.
32. Саидова Р. Комментирование как эффективный прием анализа художественного произведения в 8 — 10 классах школ с узбекским языком обучения. Автореф. дис... канд. пед. наук. — Ташкент, 1990.
33. Стыркас И.Н. Комментированное чтение художественных произведений в старших классах национальной школы: Автореф. дис.... канд. пед. наук. — М., 1982.
34. Турдимов Ш. Халқимиз тарихининг шоҳ байти. — // ЎзАС, 2010 йил, 3 декабрь.
35. Tursinova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli. "Til va adabiyot ta'limi", 1992. № 3-4.
36. Тожиёв А. Бадий асар таҳлили. — // "Til va adabiyot ta'limi", 1993, № 3.
37. Тўхлиев Б. Адабиёт — санъат тури ва ўқув предмети сифатида. - // Адабий таълим ва ёшлар тарбияси.- Тошкент, 2011.
38. Тўхлиев Б. Адабиёт. Академик лицейлар ва касб-хунард коллежлари учун дарслик. Тошкент, Ўқитувчи, 2005.
39. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. — Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
40. Умумий ўрта таълим мактаблари дастури. Ўзбек адабиёти (V—IX синфлар учун). "Маърифат" газ.2007.2.7,11 октябрь.
41. Фарҳанги забони тожики, ж.1, М.: 1969.
42. Фарҳанги забони тожики, ж.2, М.: 1969.
43. Xasanov B.Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. T.1993.
44. Шермуродов Т. Руҳий тарбия илми ва адабий талқин. - /

/ Оғзаки ва ёзма нутқ муаммолари — Тошкент, 2010.

45. Шнейерсон М.А. Комментированное чтение на уроках литературы. — Л.: Учпедгиз, 1959.
46. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Далли. 2 жилдлик, (Томларни тузувчи Ҳоди Зариф, Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўғли, нашрга тайёрловчи М.Алавиа) - Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, 7-бет.
47. Юсуф ва Аҳмад: Достон / Айтувчилар: Муаммадқул Жомроҳ ўғли Пулдан ва Фозил Йўлдош ўғли; ёзиб олувчи Ҳоди Зариф, масъул муҳаррир Тўра Мирзаев, - Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 7-бет
48. Ўзбек тилининг изоҳли лугати, ж.ІV. Тартибот-Шукр, Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси илмий нашриёти, 2008. 553-бет.
49. Ўзбек тилининг изоҳли лугати, ж.ІІІ. Тартибли, Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. 411-бет.
50. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Бешинчи жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008, 417-бет.
51. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов; Масъул муҳаррир Ш.Турдимов. — Тошкент, Шарқ, 2003, 215-220-бетлар.
52. Ўзбек халқ эртақлари, К.І. (Тузувчилар: М.Афзалов, Х.Расулов, З.Хусанова), Т.: Ўқитувчи, 2007.
53. Ўзбек халқ эртақлари, К.ІІ. (Тузувчилар: М.Афзалов, Х.Расулов, З.Хусанова), Т.: Ўқитувчи, 2007.
54. Қораев С. Географик номлар маъноси. — Тошкент, Ўзбекистон, 1978.
55. Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. 2004.
56. Адабиёт (Мажмуа): Академик лицейларнинг иккинчи босқич ўқувчилари учун./ Тузувчилар: Б.Тўхлиев, Р.Мирсамиқова, О.Аметова, Тошкент, Чўлпон, 2010.
57. Адабиёт (Мажмуа): Академик лицейларнинг иккинчи босқич ўқувчилари учун./ Тузувчилар: Б.Тўхлиев, Р.Мирсамиқова, О.Аметова, Тошкент, Чўлпон, 2010.
58. Ahmedov S., Qosimov V., Qo'chqorov R., Rizaev Sh.

Adabiyot, 5-sinf uchun darslik, "Sharq" — T.2007.

59. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizaev Sh/ Adabiyot. 6-sinf uchun darslik, Toshkent, "Ma'naviyat", 2005.

60. Karimov N. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi". 2004.

61. S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot.8-sinf uchun darslik. Toshkent "G'.G'ulom nashriyot uyi".2006.

62. Sirojiddin Sayyid. Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni.— T."Sharq", 2005.

63. Tursinova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli. "Til va adabiyot ta'limi" oynomasi. 1992. №-3,4.

64. Yusuf Berdak. Mumtoz agabiy asarlar lug'ati. — Toshkent, Sharq, 2010.

65. B.Qosimov va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi". 2004.

66. Yo'ldoshev Q., Qosimov B.,Qodirov V. Adabiyot 7-sinf uchun darslik. Toshkent."Sharq", 2005.

67. Yo'ldoshev Q.,Qodirov V.,J.Yo'ldoshibekov. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. "Yangi yo'l Roligraf servis". 2006.

MUNDARIJA

Sharhlab o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	3
Navoiy asarlarini o'rganishda sharhlab o'qish.....	16
«Zarbulmasal»ni sharhli o'qish.....	23
"Alpomish" dostonini sharhlab o'qitish.....	29
Umumiy xulosalar.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar.....	50

S.Bekchanova
N.Allamberganova

ADABIYOT DARSLARIDA
MATNNI SHARHLASH

Muharrir
Texnik muharrir
Dizayner
Sahifalovchi

Shukur Qurbon
A. Nazarov
B. To'xliyev
N. Rahmonov

Terishga 2011-yil 18-fevralda berildi.
Bosishga 2011-yil 30-avgustda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$. Times garnituras.
Ofset bosma. Hisob-nashriyoti t.: 2,33
Shartli b.t.: 3,5. Adadi 500 nusxa.
Buyurtma № 20

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti
Tel: (+99871) 239-40-56. e-mail: natlib.uz

"BAYOZ" MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.